

№3/2025

Xalqaro ilmiy jurnal

STRATEGIK

ISSN 2992-9032

KUCH



8 BUYUK BRITANIYADA IJROIYA
HOKIMIYAT HUZURIDAGI MASLAHAT
KENGASHLARI

39 OLIY TA'LIMDA DAVLAT
SIYOSATINING HUQUQIY
ASOSLARI TAHLILI

№3.2025

Xalqaro ilmiy jurnal

STRATEGIK

KUCH

ISSN 2992-9032

Bosh muharrir:
Q.Q Quranbayev

Ma'sul muharrir:
A.T. Jalilov
A.Z. Sa'dullayev
A.S. Begmatov
A.T. Jalilov
A. Kawano
A. Ospanova
K.B. Qodirov
A.B. Yunusov
N.I. Mingbayeva
CH.X. Mirxoliqova
A.J. Qaxxorov
Z.T. Luxmanova
E.Sh. Elmurodov
S.B. Abduraxmonov
T.O. Shodiyev
D.A. Choriyeva

Tahririyat jamoasi:
A.T. Onorov
S.H. Diyorov

Dizayner:
S.S. To'rayev

2022-yil asos solingan

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini
o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash
instituti

Tahririyat manzili:
100066, Toshkent,
Islom Karimov, 45.
Telefon: 71-232-61-31
E-mail: info@yomi.uz

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2022-yil 11-avgust 1696-son bilan ro'yxatga olingan.

Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar, dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Guvohnoma №1696. 11.08.2022. Toshkent, Islom Karimov, 45.

Jamshid YUSUBOV. DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.....	4
To‘ychi AXMEDOV. BUYUK BRITANIYADA IJROIYA HOKIMIYAT HUZURIDAGI MASLAHAT KENGASHLARI.....	8
Azim XOLMAXMATOV, Sherzod KARIMOV, Navro‘zbek ISMONOV. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI HUDUDLARDA TADBIRKORLIK SUB‘EKTLARINING FAOLIYATI DEMOGRAFIYASI TAHLILI TO‘G‘RISIDA.....	12
Musurmon XURRAMOV. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGINI TA‘MINLASH VA DINIY SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA MONITORINGI.....	18
Shoxrux Orziqulov. ANALYZING GLOBAL UNIVERSITY RANKINGS: TRENDS AND IMPLICATIONS.....	24
Zafar ARSLONOV. GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MILLIY- MA‘NAVIY O‘ZLIGINI SAQLASHNING ASOSIY OMILLARI VA MEXANIZMLARI.....	29

Azamatdin UMATOV. YANGI O‘ZBEKISTONDA SAMARADOR DAVLAT BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY SIYOSATNING AHAMIYATI.....	34
Timur NURMAMATOV. OLY TA‘LIMDA DAVLAT SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI.....	39
Ilhomjon KAMOLOV. IJTIMOY HAMKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI.....	44

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Jamshid YUSUBOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Maqolada davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va islohotlarga oid fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarining isloh etilishi davlat xizmatchilarining boshqaruv mahoratlarini oshirish, shuningdek, ularni tanlash, tayyorlashni takomillashtirishga oid tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, zamonaviy texnologiya, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat boshqaruvi, davlat xizmatchilari.

Kirish. Istiqloq yillarida O‘zbekistonda barcha jabhalarda bo‘lgani kabi davlat fuqarolik xizmati kadrlari siyosatida ham zamonaviy, demokratik tamoyillarga asoslangan tub o‘zgarishlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. 1995 yildan boshlab mamlakatimizda 30 ga yaqin turli soha boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan akademiya, institut, boshqarma hamda markazlarning faoliyat ko‘rsatayotganligini davlat fuqarolik xizmati kadrlari siyosatidagi muhim yutuq sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2017 yil 8 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi akademiyaning faoliyatida muhim vazifalarni belgilab berdi[1.].

Islohotlarning davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida o‘zaro uyg‘unlikda, yaxlit tizim va davr nuqtai nazaridan amalga oshirilishi natijasida insonlar tafakkurida ham yangilanish va yuksalish jarayoni eski tuzum asoratlari ustidan g‘olib keldi. Tarix va tajribadan ma‘lumki, har qanday islohotlarda fuqarolarning ongli ishtiroki yetarli bo‘lmas ekan, muvaffaqiyatga erishish juda qiyin. O‘zbekistonda esa aholining islohotlarni amalga oshirish jarayonidagi ishtiroki tobora kengayib va amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillarda

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlarining isloh etilishi davlat xizmatchilarining boshqaruv mahoratlarini oshirishga, shuningdek, ularni tanlash, tayyorlashni takomillashtirishga keng sharoitlar yaratmoqda. Bular esa, o‘z navbatida, boshqaruv organlariga qabul qilinayotgan xizmatchilarning yuqori malakaga ega bo‘lishini, hozirgi davr talablari darajasidagi tayyorgarliklardan o‘tishini, ularning ma‘lum intellektual salohiyatga, amaliy tajribaga ega bo‘lishini taqozo eta boshladi. Shuningdek, rahbar kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish maqsadida vazirliklar, boshqa davlat idoralari va joylarda mahalliy boshqaruv organlari uchun kadrlar zahirasini yaratish, ularni qayta tayyorlashga doir chora-tadbirlar ham ko‘rila boshlandi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tasnifiga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatidagi kadrlarning ustuvor fazilatlarini ushbu quyidagi 1-jadvalda keltirilgan:

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi”[2.], deya belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 122-moddasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy



1-jadval

darajada ijrosini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy «ovoziga» aylantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida yo'lga qo'yishni talab etmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" deb nomlangan 4-yo'nalishi 1-qismida xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish, ya'ni, "Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish" deb nomlangan 81-bandida birqator vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bular:

- kadrlar bilan ishlash bo'yicha 2 mingdan ortiq tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to'liq raqamlashtirish;
- davlat fuqarolik xizmatini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish;
- «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan davlat fuqarolik xizmati tizimini to'liq ishga tushirish doirasida ushbu tizim bilan 70 dan ziyod davlat organlari qamrab olinishini ta'minlash;
- milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish;
- davlat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish[3.].

Shu o'rinda, bu sohada islohotlar jadallashgan jarayonda manfaatlar to'qnashuvining ahamiyati haqida gapirmay o'tolmaymiz. Prezidentimizimiz Sh.Mirziyoev tomonidan 2024 yil 5 iyunda imzolangan "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi O'RQ-931-con Qonunda quyidagilar belgilab berildi[4]:

- manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish tartibi;
 - manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashga doir choralar;
 - manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarni ko'rib chiqish va tekshirish tartibi.
- O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida manfaatlar to'qnashuviga ta'rif berilgan. Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.

Qonun quyidagilar uchun amal qiladi:

- davlat organlariga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50

foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlariga.

O'zbekiston Respublikasining Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

Manfaatlar to'qnashuviga oid hollarni hal qilish uchun Qonun bilan quyidagi choralarni ko'rish nazarda tutilgan:

o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo'ysunuvidagi davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuvi o'tkazish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko'rib chiqish;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralari ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish va boshqalar.

Metodologiya. Tahlil va natijalar. Davlat va jamiyat hayotining turli sohalaridagi o'zgarishlar natijasida davlat xizmatida korruptsiya o'zining turli yashirin va zamonaviy ko'rinishlari bilan yuzaga keladi. Bunda korruptsiogen xususiyatga ega bo'lgan huquqbuzarliklar nafaqat moddiy pul va qiymatliklar asosida, balki, turli harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmaslik natijasida davlat va jamiyat hayotiga zarar yetkazishga olib keladi. Manfaatlar to'qnashuvi zahirida ham aynan turli yakka shaxs va guruhlarining, taraflarning manfaatlari bilan davlat va jamiyat manfaatlari to'qnashuvi yuzaga keladi.

Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi bir qarashda "manfaat" va "to'qnashuv" so'zlari birikkan holda ikkita sub'ektning manfaati to'qnashuvi ma'nosini bildirsa, huquqiy jihatdan mazkur tushunchalar birikmasi boshqacha holatni ifodalaydi. To'qnashuv so'zi lotincha "conflictus" so'zidan olingan bo'lib, qarama-qarshilik, qarama-qarshi tomonlar, qarama-qarshi fikr, kuch, kelishmovchilik va nizo, shuningdek qarama-qarshi kuch va fikrlarning to'qnashuvi ma'nolarini bildiradi[5. 96-bet].

Manfaat so'zi esa arabcha foyda, daromad, moddiy, ma'naviy va boshqa jihatdan ko'riladigan naf so'zlarining tavsifidir. Biroq, so'zlar birikmasidan hosil bo'lgan mazkur iboraning yuridik tabiatini aniqlashda uning huquqiy ma'nosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Qonunchilikka ko'ra, davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvi bir tomondan davlat va jamiyat manfaatlarining, ikkinchi tomondan esa davlat fuqarolik xizmatchisi manfaatlarining to'qnashuvida, o'zaro kelishmovchiliklarida yuzaga keladigan holat hisoblanadi. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi mazmunida bevosita siyosiy, iqtisodiy va shaxsiy manfaatlar yuzasidan kelib chiqadigan to'qnashuv, ziddiyatlar yotadi, ya'ni shaxsning o'z manfaatidan foydalanishi yoki foydalanishga urinishi Rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi axloqiy kodekslarda davlat xizmatchilari xulqining namunaviy kodeksi asosan shu narsaga e'tibor qaratadiki, davlat xizmatchisi har qanday sharoitda ham o'zining rasmiy holatidan shaxsiy foyda olish huquqiga ega emas. U o'zining shaxsiy manfaatlari xizmat vazifasi bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Davlat xizmatchisi bunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun mas'ul hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday kodekslar shunday vaziyat yuz berganda qanday choralar ko'rish zarurligini ham ko'rsatib o'tadi.

Manfaatlar to'qnashuvi bilan chambarchas bog'liq xunuk hodisalardan biri – korruptsiya. Korruptsiyaga qarshi kurash butun madaniylashgan dunyo davlat organlari faoliyatida birinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan faol harakatlarga Yevropa ittifoqining faoliyati misol bo'la oladi. Ittifoq tashabbusi bilan 1994 va 1997 yillarda davlat va xokimiyat boshliqlarining uchrashuvlari, ushbu masala muhokama qilingan Yevropa mamlakatlari adliya vazirlarining ikkita konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Ularning sa'yi-harakatlari bilan korruptsiyaga qarshi kurashning 20 ta rahbarlik tamoyiliga asoslangan dasturi ishlab chiqildi. Bir qator tamoyillar davlat xizmatini etik jihatdan tartibga solishga tegishli bo'lib, xizmat xulqining muvofiq kodekslariga tayanadi.

Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha mazkur bosqichda amalga oshirilgan huquqiy islohotlarda Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odo-axloq namunaviy qoidalari markaziy o'rinni egallaydi. Aynan mazkur hujjatda mamlakatda ilk bora davlat xizmatiga tegishli ravishda manfaatlar to'qnashuvi huquqiy kategoriya sifatida normativ jihatdan mustahkamlandi. Jumladan, Mazkur hujjatga asosan, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda davlat xizmatchilari o'z rahbarini xabardor

qilishi kerak, rahbar esa uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi shart. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalari milliy huquq tizimida normativ jihatdan mustahkamlangan va bugungi kunda mazkur normativ asoslar asosida faoliyatni tartibga solish amalga oshirilmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlarida davlat tashkiloti xodimi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum qilish muhim ahamiyat kasb etib, u quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni deklaratsiya qilish;
- mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish.

Shu bilan bir qatorda, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha quyidagi tashkiliy mexanizmlar mavjud[5. 101-bet]:

- korruptsiya va uning bir ko'rinishi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda rotatsiya institutini qo'llash;
- davlat fuqarolik xizmati tizimiga ishga kiradigan xodimlar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etish va uning asosiy mavzulari sifatida korruptsion xavf-xatarlar va ayniqsa, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatda harakat qilish tartiblari, o'zini tutish xatti-harakatlarini tushuntirish va o'rgatish, xizmatga yangi qabul qilingan davlat fuqarolik xizmatchilarining mazkur kurslarni majburiy ravishda o'tashi tartibini joriy etish;
- ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini ko'rish;

- ma'muriy-tartib taomillarni soddalashtirish;
- davlat xizmatlarini soddalashtirish, sohaga raqamli va onlayn texnologiyalarni keng joriy etish;
- davlat xizmatlari markazlarida ko'rsatiladigan elektron xizmatlar turlarini kengaytirish.

Bir so'z bilan aytganda, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni sohaga joriy etish davlat xizmatini shaffof va qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasida davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan[6.] bo'lib, mazkur qoidalar asosida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Zero, manfaatlar to'qnashuvini hal etish mexanizmlarini qonunchilik talablari asosida tartibga solish nizoli holatlarning yuzaga kelish ehtimollarini minimallashtiradi.

Xulosa. Xulosa shuki, jamiyatda qonunlarning amalda qo'llanmasligi jazosizlik va boshboshdoqlik muhitining vujudga kelishiga yordam beradi, fuqarolarning hokimiyatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazib, jamiyatdagi ijtimoiy tayanchdan mahrum etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham rahbar faoliyatini baholashning Ijtimoiy audit instituti shakllanishi uchun barcha asoslar paydo bo'ldi. Mazkur tashkilotning xatti-harakatlari jamiyat istagiga qay darajada muvofiqligini tekshirilib, shu haqda ma'lumot berilmoqda. Boshqaruv talablarini amalga tatbiq qilishning ushbu mexanizmidan kadrlar korpusi harakati va faoliyati darajasini ichki nazorat qilishda ham foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2017 yil 8 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5139-son Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2024 y., 07/24/210/0405-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Prezident Administratsiyasi nomenklaturasidagi lavozimlarga Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar uchun qisqa muddatli malaka oshirish kursi bo'yicha o'quv-qo'llanma. 2-bosqich. / Tuzuvchilar jamoasi. –T.: Akademiya, 2022. – B. 96.
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 1-son, 2-modda.

Annotatsiya: *The article presents opinions on modern technologies and reforms in improving the efficiency of the state civil service. It also analyzes the reform of public administration bodies in Uzbekistan, improving the management skills of civil servants, as well as improving their selection and training.*

Kalit so'zlar: *civil service, modern technology, conflict of interest, public administration, civil servants.*

БУЮК БРИТАНИЯДА ИЖРОИЯ ҲОКИМИЯТ ҲУЗУРИДАГИ МАСЛАҲАТ КЕНГАШЛАРИ

Тўйчи АХМЕДОВ,
сиёсий фанлар доктори, профессор.

Аннотация: Ушбу мақолада ижроия ҳокимияти ҳузуридаги маслаҳат кенгашларининг жаҳондаги моделлари Буюк Британия мисолида очиб берилган. Буюк Британия маслаҳат кенгашларига ижроия ҳокимиятида кенг урғу берадиган мамлакат. Ҳар қандай муаммо коллегиаллик асосида ҳал этилади. Мақолада маслаҳат кенгашларини шаклланиш жараёни соҳалар кесимида тадқиқ қилинган. Маслаҳат кенгашлари йиғилишлари томонидан кўриб чиқиладиган ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий масалалар баён қилинган. Буюк Британияда ижроия ҳокимияти ҳузуридаги кенгашларининг коллегиал орган сифатидаги ўзига хос аҳамияти асослаб берилган.

Калит сўзлар: Буюк Британия, маслаҳат кенгашлари, аموатчилик кенгаши, ижро этувчи ҳокимият, мажлис, қонун, қарор қабул қилиш, кенгаш, эксперт гуруҳлари.

Буюк Британия – ижроия ҳокимият ҳузуридаги кенгашларга энг кўп эътибор берадиган давлат ҳисобланади. Давлат ёки маҳаллий жамоатчилик томонидан ташкил этилган жамоатчилик кенгашлари, ҳар хил шаклларда деярли ҳар бир мамлакатда мавжуд. XX асрнинг ўрталаридан жамият ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан фаоллашди ва давлат қарорларининг қабул қилинишида жамоатчилик иштирокининг муҳимлигини англади.

Шу билан бирга жамоатчилик назорати функцияларини жорий этиш, давлат органлари фаолиятини янада самарали, тушунарли ва шаффоф бўлишини тушуниб етди. Демократик мамлакатларда маслаҳат жамоатчилик органларини ташкил этиш амалиёти кенг тарқалмоқда. Глобал тенденциялар шуни кўрсатадики, жамоатчилик кенгашлари доимий маслаҳат органи бўлиб, ўз фаолиятини ихтиёрий равишда амалга оширади. Жаҳон амалиётида унинг асосий мақсади – давлат органи билан маслаҳатлашувлар ва тавсияларни амалга оширишда фуқаролик секторининг иштирокини таъминлаш.

“Жамоатчилик кенгашларининг яратилиш мақсадига асосланиб шартли равишда кенг йўналишли ёки тор йўналишли бўлиши мумкин. Уларқуйидаги мақсадларучун яратилишимумкин: турли хил профессионал соҳадаги экспертлар билан давлат органларининг маслаҳатлари;

давлат органларига ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишда ёрдам бериш; жамоатчилик фикрини мониторинг қилиш; ҳукумат томонидан қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатлар ижроси устидан жамоатчилик назорати; ижтимоий дастурларни амалга ошириш.

Бугунги кунда жамоатчилик кенгашларини шакллантиришда қуйидаги ёндашувлар мавжуд, уларни тахминан бешта тоифага бўлиш мумкин: танланган; тайинланган; аралашган; рақобатдош; тасодифий. Жамоатчилик кенгашлари фаолиятини моддий қўллаб-қувватлашнинг турли усуллари мавжуд. Учта асосий усулни ажратиш мумкин: қисман таъминлаш, кенгаш фаолиятини тўлиқ таъминлаш, ҳомийлар ва жамоатчилик хайрия маблағлари. Фаол, самарали ва аҳоли томонидан ҳурматга сазовор жамоатчилик кенгашлари – етук фуқаролик жамиятининг аниқ кўрсаткичларидир. Хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини ўрганиб ва таҳлил қилиб, Ўзбекистонда жамоатчилик кенгашлари фаолиятининг самарали механизмларини шакллантириш имконияти мавжуд” [1, 28-29].

Жаҳонда ижроия ҳокимият энг кўп коллегиал органларни ўзида жамлаштирган ҳокимият тармоғи ҳисобланади. Жуда кўп мамлакатларда маслаҳат-кенгашларнинг сони кўп ва уларга ёндашув ҳам бир-бирдан фарқ қилади. Масалан, 2009 йилда Буюк Британиянинг департаментлари ва вазирликларида “давлат

органлари” мақомида 405 та маслаҳат тузилмаси мавжуд эди. Ёки АҚШдаги маслаҳат органлари тизими турли бўлимлар қошидаги 900 га яқин маслаҳат кўмиталари мавжуд эди[2].

Бугунги кунда маслаҳат-кенгаш органларининг ўзига хос моделлари мавжудлигини сабаблари бор. Маслаҳат органларининг ривожланишининг умумий омиллари давлат функцияларининг кенгайиши ва ҳал қилинаётган муаммоларнинг ўсиб бораётган техник мураккаблиги ҳисобланади. Кўриб чиқиладиган ҳар бир ҳолатда, эҳтимол, маълум даражада ушбу органлар томонидан бажариладиган функцияларда фарқларни келтириб чиқарадиган ўзига хос омилларни ҳам ажратиш кўрсатиш мумкин.

Россиялик тадқиқотчи Г.Гарифуллина фикрича, Буюк Британиянинг маъмурий жараёни муҳокама ва муроасага йўналтирилганлиги билан ажралиб туради. Шунга кўра маслаҳат органлари бундай муроасага эришиш воситасига айланади, ноаниқлик шароитида қарорлар қабул қилишда хавфларни камайтиришга хизмат қилади ва мансабдор шахсларга жавобгарликнинг бир қисмидан халос бўлиш ҳамда низолардан қочиб имконини беради. Консенсусга эришиш истаги ҳатто қарорни кечиктириш эвазига амалга оширилади. Кўмиталар манфаатдор гуруҳлар ва бўлимлар ўртасидаги музокаралар учун институционал шаклдир. Маслаҳат кўмиталари тизими манфаатлар гуруҳларини бирлаштириш учун расмий тузилмалар орқали қарорлар қабул қилиш жараёнига махсус билимларни жалб қилиш учун мўлжалланган.

Буюк Британияда маслаҳат тизимининг ривожланишидаги иккита асосий омилга эътибор қаратади. Биринчидан, ҳукумат иши тобора кўпроқ техник, ихтисослаштирилган ахборотни талаб қилади, бунинг учун ташқи экспертларни кенг жалб қилиш зарур. Иккинчидан, ҳукумат сиёсатининг кучайиб бораётган аралашуви манфаатдор томонлар билан маслаҳатлашишни талаб қилади, чунки улар ўзларини эшитиш ҳуқуқига эга деб ҳисоблайдилар ва уларнинг ҳамкорлиги қабул қилинган қарорларни муваффақиятли амалга ошириш учун зарурдир[2].

Британияда давлат ва жамият бошқаруви соҳасидаги энг сўнги ўзгаришлардан бири – муайян давлат идоралари билан фаолият юритувчи маслаҳат кўмиталари ҳамда консультатив кенгашларни ташкил этиш ҳисобланади. Расмийлар олдин ҳам норасмий кўринишда фуқароларнинг кичик гуруҳлари билан маслаҳат ташкил этганликлари эҳтимолдан йироқ эмас. Парламент аъзолари ва фуқаролардан таркиб топган вақтинчалик

маслаҳат комиссиялари фаолият юритгани ҳам маълум. Бироқ, охириги ўзгаришлар бундай маслаҳат органларининг давлат ва жамият бошқарув тизимининг доимий қисмига айлантириб, баъзи ҳолларда уларни билан расмий мақомда муносабатга киришаётганидан дарак беради.

Таълим кенгаши тўғрисидаги 1899 йилги қонун олий таълим муассасалари ва бошқа таълим даргоҳларини консультатив кўмиталар тамсил этишига рухсат беради. Биринчи жаҳон урушида бундай кўмиталар ўз фаолиятини тўхтатган, бироқ, 1920 йилдан бошлаб 21 аъзодан иборат бўлган, ҳар етти аъзонинг муддати ҳар икки йилда яқин топадиган янги кўмиталар шаклланди. Аъзоларнинг тўрт нафари аёл киши эди. Савдо кенгашлари тўғрисидаги 1909 йилги қонун туман савдо кўмиталарининг аввал Савдо Кенгаши, кейинроқ эса Меҳнат вазирлиги рухсати билан ташкил этилишини белгилаган.

1911 йилги Миллий суғурта тўғрисидаги қонун ҳар бир туман ва қишлоқларда суғурта кўмиталари фаолият юритишини белгилаган. Полиция ва фабрика- заводлар тўғрисидаги 1916 йилги қонунга биноан жиноятчиликка қарши курашда йўриқнома ва низомлар ишлаб чиқиш фаолиятида маслаҳат кенгашлари тузилиши мумкин. Бундай кенгашлар Шаҳар полиция бошқармаси бошлиғи томонидан тайинланади. Шунингдек, ваколатлари ноаниқ бўлган муайян маслаҳат кенгашлари ҳам ташкил этилган бўлиб, Почта идораси қошидаги тадбиркорлар маслаҳат кенгаши, Таълим бюроси ҳузуридаги Ёши катталар таълими бўйича маслаҳат кенгаши ҳамда Ички ишлар идораси ҳузуридаги маҳқумлар таълими бўйича маслаҳат кенгаши шулар жумласидандир.

Лорд Ҳалден бундай кўмита ва кенгашлар ҳақида шундай деганди: «маслаҳат кенгашлари вазирларнинг парламент олдидаги мажбуриятларини бажаришларига ҳалал бермас экан, менинг фикримча, улар бўлим ва бошқармалар ташкилий тузилмасининг ажралмас қисми сифатида қабул қилинган ҳолда вазирлар Парламент ва жамоатчилик хизматида давом этишлари лозим». Биринчи жаҳон урушидан бери Парламент томонидан қабул қилинган бир қатор қонунлар кўплаб маслаҳат кенгашларининг ташкил этилишига дебоча бўлди. Транспорт вазирлиги тўғрисидаги 1919 йилги қонун тарифлар бўйича маслаҳат кенгаши, йўл масалалари бўйича маслаҳат кенгаши, ҳамда келажакда бошқа шундай кенгашлар тузилишида иштирок этиши мумкин бўлган потенциал аъзолар панелининг ташкил этилишига рухсат берган. Тарифлар бўйича

маслаҳат кенгаши беш нафар аъзодан иборат: бир нафар аъзо юридик билимга эга бўлиб, Бош девонхона бошлиғи (Лорд Чансэллор) томонидан тайинланади, икки нафар аъзолар савдо ва қишлоқ хўжалиги қатламларининг манфаатини акс эттириб, уларнинг номинацияси Савдо Кенгаши томонидан Тижорат палатаси, Қишлоқ хўжалиги марказий палатаси ҳамда бошқа ташкилотлар билан маслаҳатлашгандан сўнг илгари сурилади; бир нафар аъзо транспорт соҳаси қатламларининг манфаатини акс эттириб, Меҳнат вазири томонидан танланади, бир нафар аъзо эса меҳнаткашлар манфаатини акс эттириб, Меҳнат вазири томонидан касаба уюшмалари конгрессининг парламентдаги қўмитаси билан кенгашилгач тайинланади. Муайян ҳолларда яна бир нафар қўшимча аъзо ҳам тарифлар бўйича маслаҳат кенгаши фаолиятига жалб қилиниши мумкин. Тарифлар, йўл ҳақидаги ҳар қандай ўзгартириш таклифлари ушбу кенгашга олдиндан ҳавола қилиниши лозим. Йўллар бўйича маслаҳат кенгаши камида 11 нафар аъзодан иборат бўлиб, беш нафар аъзо шоҳ йўллари, беш нафар аъзо қатнов масалалари, бир нафар аъзо меҳнат масалаларига ихтисослашган бўлади.

Соғлиқни сақлаш вазирлиги тўғрисидаги 1919 йилги қонунга биноан тиббиёт хизматлари қўмитаси, Миллий суғурта тизими, маҳаллий соғлиқни сақлаш бошқарма ва бўлимлари рухсати билан соғлиқни сақлаш соҳасида 4 та консултатив кенгашлар ташкил қилинган. Уларнинг ҳар бири камида йигирма нафар соҳа мутахассисларидан иборат аъзоларни қамраб олган. Шунингдек, Уэлс консултатив кенгаши 30 нафаргача иборатлигини қайд этиш лозим. Миллий суғурта тизими бўйича консултатив кенгаш аъзолари сони эса 40 нафарга етказилди. 1919 йилги Қишлоқ хўжалиги ва балиқчилик вазирлиги тўғрисидаги қонун Англия ва Уэлсда қишлоқ хўжалиги бўйича маслаҳат кенгашлари ташкил этиш ҳамда туман қишлоқ хўжалиги қўмиталарини тузишга рухсат беради. 1920 йилги уруғлар тўғрисидаги қонунга биноан Қишлоқ хўжалиги вазири қарор ва буйруқлар чиқаришдан олдин ушбу манфаатдор томонлар билан кенгашиши лозим. Шотландияда ҳам тиббиёт ва қишлоқ хўжалиги соҳасида шунга ўхшаш маслаҳат кенгашлари фаолият юритади.

1919 йилги Полиция тўғрисидаги қонунга биноан Давлат Котиби Англия ва Уэлс полицияси фаолиятини мувофиқлаштириш ва йўриқномалар ишлаб чиқишга масъулдир. Йўриқ ва низомлар қўшма назорат комиссияси, Полиция Федерацияси вакиллари, юқори мартабали зобитлар вакиллари билан иборат бўлган кенгашга кўриб чиқиш учун юборилади.

Низомлар ва йўриқномалар ушбу кенгаш хулосалари асосида кучга киради. Ёки 1919 йилдаги Электр (таъминоти) тўғрисидаги қонун Электр комиссарлари қўшма электр таъминоти муассасаларининг раҳбарлари ёки аъзолари ҳамда малакали мутахассислардан иборат маслаҳат қўмиталарини ташкил қилиниши мумкин. Маслаҳат қўмиталари комиссарга электр таъминотини яхшилаш масалаларида маслаҳат бериш билан шуғулланади[3].

Буюк Британия таълим тизимида маслаҳат кенгашлари мисолида фикримизни давом эттирамиз. Илгари директор кенгашлари деб номланган мазкур кенгашлар таълимга оид қарорлар қабул қилишда маслаҳат органи сифатида фаолият юритади. Маслаҳат кенгаши аъзолари таълим бошқармасининг таълимга оид қарорлар қабул қилишида маслаҳатчилик ҳамда қарорларни танқидий кўриб чиқиш вазифаси билан шуғулланади. Бироқ, маслаҳат кенгашлари – қарор қабул қилиш ваколатига эга эмас.

Маслаҳат кенгаши аъзолари қарор қабул қилиш жараёнида ўз билим, малака ва тажрибаси билан ҳисса қўшиш орқали вилоятлардаги таълим бошқармалари ҳамда уларнинг бўлимлари фаолиятига кўмаклашади. Шунингдек, улар муайян соҳа, масалан, трастлар бошқаруви, мактабларни ривожлантириш ёки мактаб бюджетини идора этишга ихтисослашган экспертлардан иборат бўлиб, экспертлар ўз ихтисослигидан келиб чиққан ҳолда маслаҳатчилик фаолиятини олиб боради.

Ҳар бир маслаҳат кенгаши 8 нафаргача аъзоларни қамраб олади: 4 нафар аъзолар маҳаллий мактабларнинг директорлари томонидан сайланади; 2 нафар аъзолар вилоят таълим бошқармаси бошлиғи томонидан тайинланади; 2 нафар аъзолар таълим вазирлиги томонидан танлаб олинади. Маслаҳат кенгашларининг барча аъзолари тенг ҳуқуққа эга. Одатда аъзолар таълим соҳасига алоқадор мутахассислар орасидан шакллантирилади.

Маслаҳат кенгашлари ҳеч бир ташкилотнинг вакиллик органи эмас. Маҳаллий ҳокимият органларини ўзида тамсил этмайди. Маслаҳат кенгаши аъзолари ҳар ойда бир марта кенгаш мажлисини ўтказади. Мажлис сана ва вақт жадваллари олдиндан эълон қилинади. Мажлисда муҳокама қилинадиган масалалар ва ушбу масалаларга оид ахборотлар, масалан, мактабларнинг молиявий маълумотномалари, кадрлар бошқаруви ва тузилмавий аспекти, самарадорлик кўрсаткичлари мажлисга тайёргарликка оид ҳужжатлар пакетида эълон қилинади. Мажлис хулосалари асосий ҳиссадорлар бўлмиш мактаблар, трастлар ва фуқаролар бошқарма

бошлигининг хулосалари эълон қилинган пайдан эътиборан оммага ҳавола қилинади.

Маслаҳат кенгаши куйидаги маълумотларни оммага ошкор қилиш учун масъул: аъзолар рўйхати; манфаатлар тўқнашувига оид маълумотномалар (ҳар уч ойда бир бора); кун тартиби; мажлис хулосалари ҳамда бошқарма бошлигининг хулосаларга оид чиқарган қарорлари[4].

Шундай қилиб, Буюк Британияда маслаҳат органлари тизимининг пайдо бўлиши ва жадал ривожланиши сабабларини тадқиқотчилар давлат аралашуви соҳасининг ўсишини (қисқа муддатли — уруш шароитида ҳам, узоқ муддатли ҳам) ўзига хос хусусиятлар деб аташади. Бундан ташқари сиёсий маданият, унинг маслаҳатлашув ва консенсусга йўналтирилганлиги, шунингдек, ташқи муҳитнинг мураккаблиги туфайли

ҳукуматнинг ихтисослашган ахборотга бўлган эҳтиёжининг ортиб бориши билан боғлиқ[2].

Хулоса қилиб айтганда Буюк Британия ижроия ҳокимияти ҳузуридаги маслаҳат органлари бўйича ўзига хос модел асосида ривожланаётган мамлакатдир. Ҳар бир вазирлик ва идоралар ўзининг бир нечта маслаҳат кенгашларига эга. Ижро тизимидаги муҳим ислохотларни белгилашда кенгашга урғу бериш нуқтаи назаридан Буюк Британия намунали давлатлардан дейишимиз мумкин. Шундан келиб чиқилса, Ўзбекистонда ҳам ижроия ҳокимияти идоралари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашлари ва тадқиқот институтлари фаолиятини ривожлантиришда Буюк Британия тажрибасини қўллаш имкониятлари мавжуд.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Давлат органлари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашларини ташкил этиш ва ривожлантириш. Услубий қўлланма. –Т., -Б. 28-29.
2. Гарифуллина Г. А. Системы совещательных органов при исполнительной власти в Европе и США: факторы контекста и роль в политической системе//<https://www.hse.ru/mag/27364712/2012--13/71252893.html>.
3. Fairlie, John A. Advisory Committees In British Administration // The American Political Science Review, Vol.20 No.4 (November 1926).
4. Collection Advisory boards // <https://www.gov.uk/government/collections/advisory-boards>.

Аннотация: В данной статье на примере Великобритании обсуждались глобальные модели консультативных органов исполнительной власти. Великобритания подчеркивает использование консультативных органов в исполнительной власти. Каждый вопрос будет решаться коллегиальными органами. В данной статье изучается процесс развития консультативных органов по их отраслям и обсуждаются правовые, экономические и социальные вопросы, которые рассматриваются консультативными органами. В данной статье доказывается значение консультативных советов как коллегиального органа исполнительной власти в Великобритании.

Ключевые слова: Великобритания, консультативные органы, общественные советы, исполнительная власть, совет, принятие решений, собрание, экспертные группы.

Annotation: In this article global models of advisory bodies under executive branch was discussed with British example. Britain emphasizes the use of advisory bodies in executive branch. Every issue will be handled with collegial bodies. In this article the development process of advisory bodies was studied according to their sectors and legal, economic and social issues, which are reviewed by advisory bodies are discussed. In this article the importance of advisory councils as a collegial body under executive branch in Britain was proven.

Keywords: Great Britain, advisory bodies, public councils, executive branch, council, decision-making, assembly, expert groups.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДАГИ ХУДУДЛАРДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ДЕМОГРАФИЯСИ ТАҲЛИЛИ ТЎҒРИСИДА

Азим ХОЛМАХМАТОВ,
*Сиёсий фанлар бўйича фалсафа фанлари
доктори, доцент.*

Шерзод КАРИМОВ,
*Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли
кадрларни тайёрлаш институти тадқиқотчиси.*

Наврўзбек ИСМОНОВ,
*Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли
кадрларни тайёрлаш институти мустақил
тадқиқотчиси.*

Аннотация: Мазкур илмий мақолада Ўзбекистон Республикасида тадбиркорлик субъектларининг ҳудудлар кесимидаги демографик ривожланиш тенденциялари 2017–2025 йиллар мисолида комплекс таҳлил қилинади. Тадқиқот жараёнида янги ташкил этилган ва фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектлари сонининг динамикаси, уларнинг ҳудудий тафовутлари, меҳнатга лаёқатли аҳоли билан нисбатлари ҳамда яқка тартибдаги тадбиркорликнинг барқарорлик кўрсаткичлари баҳоланди. Таҳлил расмий статистика манбалари асосида олиб борилиб, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий номуносивликларнинг сабаблари ва уларни юмшатиш механизмлари ёритилди. Тадқиқот натижалари ҳудудий тадбиркорлик сиёсатини такомиллаштириш ҳамда минтақавий ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқишда илмий-амалий аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: тадбиркорлик субъектлари, ҳудудий ривожланиш, демографик таҳлил, иқтисодий фаоллик, яқка тартибдаги тадбиркор, меҳнатга лаёқатли аҳоли.

КИРИШ Ўзбекистон иқтисодиётида тадбиркорлик субъектларининг роли муҳим аҳамиятга эга [1]. Сўнгги йилларда мамлакатда амалга оширилган либераллаштириш ва қўллаб-қувватлаш чоралари натижасида кичик ва хусусий тадбиркорлик сектори тезкор ўсиб бормоқда. Масалан, 2024 йилда кичик бизнеснинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 54,3% га ва экспортдаги улуши 33,3% га етгани маълум қилинган; айниқса савдо соҳасида бу ўсиш 84% ни ташкил этиб, тадбиркорлик фаоллиги юқори эканини кўрсатади [2]. Бу маълумотлар кичик бизнес секторининг иқтисодий ўсиш ва иқтисодиётни диверсификация қилишда

асосий ҳаракатлантирувчи кучга айланганини исботлайди. Шу фонда, ҳудудлар кесимида иқтисодий ва демографик шароитларни инобатга олиб тадбиркорлик субъектлари сони ва таркибини ўрганиш долзарб аҳамият касб этади. Ушбу мақолада 2017–2024 йиллардаги даврда Ўзбекистон ҳудудларида тадбиркорлик субъектлари сонининг ўзгариши, уларнинг аҳолига тақсимланиши ва вилоятлар кесимидаги тафовутлар таҳлил қилиниб, истиқболдаги ривожланиш стратегиялари ёритилади. Тадқиқотнинг долзарблиги шундаки, олинган натижалар барқарор иқтисодий сиёсат ва минтақавий тараққиёт дастурларини

шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилади.

МЕТОДОЛОГИЯ

Тадқиқотда асосий эътибор Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси (стат.уз) ва Статистика агентлиги (сиат.стат.уз) порталларидаги расмий маълумотларга қаратилди. Бундан ташқари, Давлат солиқ қўмитаси (солиқ.гов.уз) ва норматив ҳужжатлар (лех.уз)дан ҳам статистик кўрсаткичлар олиниб таҳлил қилинди. Тадбиркорлик субъектлари сонининг ўсиш суръати, фаол корхоналар сони ва уларнинг ҳудудлар бўйича тақсимооти каби кўрсаткичлар 2017–2024 йиллар бўйича йилмайил таққосланди. Аналитик жараёнда графиги ва жадвал шаклидаги маълумотлар тузиб, ўзгаришларнинг сабаб ва шарт-шароитлари ўрганилди. Асосий индикаторлар қаторига янги ташкил этилган ва фаолият кўрсатаётган корхоналар сони, ҳар 1000 нафар аҳоли учун тўғри келадиган тадбиркорлик субъектлари улуши киритилди.


НАТИЖАЛАР

Ҳудудларда тадбиркорлик субъектларининг демографияси (2017-2025 йй.) таҳлил қилинганда қуйидагилар аниқланди.

1. Янги тадбиркорлик субъектларини ташкил этиш 2017 йилда 174 мингдан (67 минг – юридик, 107 минг – жисмоний) ортиқ бўлган бўлса, 2024 йилга келиб 468 мингдан (78 минг – юридик, 390 минг – жисмоний) ортди (2,7 баравар кўп).

2025 йил 8 ойида янги тадбиркорлик субъектларини ташкил этиш даражаси (абсолют рақамларда) 2017 йилга нисбатан ижобий кўрсаткичлар Тошкент шаҳри (+70%), Хоразм (+61%), Тошкент (+54%), Самарқанд (+14%), Сурхондарё (+8%) ва Андижонда (+4%) қайд этилган.

Қолган ҳудудларда эса, 2025 йилга келиб 8 йил олдин ташкил этилган тадбиркорлардан ҳам камроқ тадбиркорлик субъектлари очилган (1-график).



1-график

Юридик шахс шаклида янги корхоналарни ташкил этиш республика бўйича сўнги 8 йилда 16,5 фоизга яхшиланган, бу ижобий ўзгариш асосан Тошкент шаҳри (+170%), Фарғона (+73%), Бухоро (+60%) ва Сурхондарё (+43%) вилоятлари

ҳисобига тўғри келмоқда.

Ҳудудлар кесимида 2024 йилги ўзгариш ва 2017 йилга нисбатан янги корхоналарни ташкил этиш таҳлиллари олиб борилди. (2-график).




2-график

2. Фаолият юритаётган корхоналар сони 2017 йилда 232 мингтани ташкил этган, 2024 йилда эса 358 мингга етган (1,5 баравар кўп).

Бундан кўриниб турибдики фаолият юритаётган корхоналар сони йилдан-йилга ошиб бормоқда.

Энг яхши ўсиш кўрсаткичи Навоийда (+211%), Самарқандда (+95%), Хоразмда (+87%), Сурхондарёда (+82%) ва Бухорода (+77%) қайд этилди.

Эътиборли жиҳати шундаки, Хоразм вилоятидан ташқари барча ҳудудларда фаолият юритаётган корхоналар сони коронавирус пандемияси давридагига (2020 йил) нисбатан ҳам камайиб кетган. Ушбу ҳудудларда пандемияда фаолият юритган корхоналар 392 мингга бўлган бўлса, 2024 йилга келиб уларнинг сони 337,5 мингга тушган, яъни 14 фоизга камайган (3-график).



3-график

Меҳнатга лаёқатли аҳоли сонига нисбатан фаолият юритаётган юридик шахс бўлган тадбиркорлар сони 2017 йилда 1,18 фоизга, 2024 йилда 1,7 фоизга тўғри келган.

Ҳар бир корхонага 2017 йилда 84,5 та меҳнатга лаёқатли аҳоли тўғри келган бўлса, 2024 йилга келиб бу кўрсаткич 58,7 тага етди

(30%га яхшиланган).

2024 йилда республика ўртача кўрсаткичидан (58,7) яхшироқ ўзгариш Тошкент шаҳри (23,9), Навоий (36,6), Бухоро (47,7), Хоразм (52) ва Сирдарё (57,7) вилоятларида кузатишган (4-график*).




4-график

* Ушбу кўрсаткич қанча юқори бўлса, аҳолининг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш даражаси шунча паст бўлади.

3. Фаолият юритаётган якка тартибдаги тадбиркорлар 2025 йил 1 сентябрь ҳолатига 302 минг нафарни ташкил этмоқда. Бу жами рўйхатга

олинган ЯТТларнинг 47,8 фоизига тенгдир (5-график).



Фаолият юритаётган ЯТТлар орасида ўз фаолиятини 3 йил ва ундан ортиқ муддат давомида амалга ошираётганлар улуши республика бўйича ўртача 38 фоизни ташкил этмоқда.

Бундай ЯТТларнинг улуши республика кўрсаткичидан ҳам юқорироқ энг яхши топ-3 ҳудудлар – Тошкент вилояти (43%), Бухоро (43%), Жиззах (41%) ҳисобланади (6-график).



Маълумотларга кўра, 2024 йилда Ўзбекистонда 77 мингга яқин янги корхона ташкил этилиб, фаолият кўрсатаётган корхоналар умумий сони 358,1 мингга етди. Янги очилган бизнес субъектларининг энг йирик улуши савдо соҳасига тўғри келиб, бу соҳада 28 мингга яқин корхона очилди. Саноат (12,8 мингта), қишлоқ хўжалиги (9,1 мингта) ва қурилиш (5,1%) каби бошқа соҳаларда ҳам сезиларли ўсиш қайд этилди.

Ҳудудлар бўйича фарқлар аниқ намоён бўлмоқда. Статистика агентлиги маълумотларига кўра, 2024 йил 1 январ ҳолатига республикада фаолият юритаётган кичик корхона ва микрофирмалар сони 417,1 мингта ни ташкил

етиб, бу ҳар 1000 нафар аҳолига ўртача 14 та тадбиркорлик субъектининг тўғри келишини англатади. Ҳудудлар кесимида Тошкент шаҳри 87 458 та билан етакчилик қилади; Тошкент вилоятида 38 458, Самарқандда 37 398, Фарғонада 36 238 та корхона фаолият юритмоқда [6]. Кейинги ўринларда Қашқадарё (27 980) ва Бухоро (27 594) вилоятлари туради. Энг кам кўрсаткичлар Сирдарё (11 217 та) ва Жиззах (16 677 та) вилоятларида қайд этилган. Бу фарқлар вилоятларнинг аҳоли зичлиги, инфратузилма ҳолати ва иқтисодий салоҳиятидан келиб чиқади.

Кичик бизнес субъектларининг демографик кўрсаткичлари яхшиланмоқда. Масалан,

Статистика агентлиги маълумотларига кўра, республикада фаол корхоналар сони 2017 йилдаги қийматга нисбатан ошиб, аҳоли учун тўғри келувчи корхоналар сони кўрсаткичида ҳам ижобий ўзгаришлар бўлган [6]. Бир корхонага тўғри келадиган меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 2017 йилда ўртача 84,5 кишидан 2024 йилда 58,7 кишига камайди, яъни аҳолининг тадбиркорлик билан шуғулланиш даражаси ошганлигини билдиради. Шунингдек, яккашахсли тадбиркорлар сони 2025 йилга келиб сезиларли даражада ортди (тахминан 302 минг нафар), уларнинг қарийб ярми камида уч йилдан бери фаолият юритмоқда. Бу тадқиқот кўрсатдики, кичик тадбиркорлик субъектлари сони бўйича минтақавий тафовутлар мавжуд бўлса-да, умумий тенденция ижобий.

МУҲОКАМА Тадқиқот натижалари республикадаги тадбиркорлик фаоллигининг ошиб бораётганлигини тасдиқлайди, бироқ ҳудудлар ўртасидаги фарқлар сақланиб қолган. Тошкент шаҳри ва вилояти инфратузилма, молиявий хизматлар ва аҳоли зичлиги бўйича етакчи бўлгани сабабли енг катта корхона базасига эга. Аҳоли зичлиги юқори бўлган Фарғона водийси (Фарғона, Наманган ва Андижон) ва Самарқанд вилоятлари ҳам ишбилармонлик фаоллиги юқори ҳудудлардандир. Бухоро, Қашқадарё ва Сурхондарё каби вилоятларда қишлоқ хўжалиги ва саноат лойиҳаларига қаратилган инвестициялар натижасида тадбиркорлик ўсмоқда. Аксинча, аҳоли нисбатан кам ва инфратузилма суст бўлган Сирдарё, Жиззах, Қорақалпоғистон ва Навоийда бизнес субъектлари сони пастроқ, бу еса иқтисодий омилларнинг минтақавий тафовутини кўрсатади.

Иқтисодий омиллар тадбиркорликни рағбатлантиришда муҳим рол ўйнайди. Охириги йилларда амалга оширилган ислохотлар натижасида кичик бизнес экспорт ва инвестиция лойиҳаларига жалб этилиб, иқтисодиётнинг асосий секторлари – савдо, қурилиш ва хизматлар – сезиларли ривожланмоқда. Кичик бизнеснинг ЯИМдаги улуши 54,3% га етиб, у иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлаб қолмоқда. Бунинг натижасида вилоятлар кесимида иш билан банд аҳоли сони ортиб, миграция суръати пасаймоқда [5].

Ҳудудий тафовутларга қарши чора сифатида келгусидаги ривожланиш стратегияларида тадбиркорликни рағбатлантириш сиёсатини минтақавий махсуслаштириш муҳим. Масалан, тадбиркорлик кўрсаткичлари паст ҳудудларга инфраструктура, логистика ва кадрлар тайёрлаш соҳаларида сармоя киритиш мақсадга мувофиқ бўлади. Қишлоқ хўжалиги салоҳиятига

эга вилоятларда аграр инновациялар ва агропарклар, индустриялашув суръатини ошириш лойиҳалари амалга оширилиши керак. Шунингдек, шаҳарларда ахборот технологиялари, енгил саноат ва хизматлар секторини ривожлантириш учун қўшимча солиқ имтиёзлари ва бизнес инкубаторлари ташкил этилиши лозим.

ХУЛОСА Олиб борилган тадқиқот натижалари 2017–2025 йиллар давомида Ўзбекистон Республикасида тадбиркорлик субъектларининг ҳудудлар кесимидаги демографик ривожланиши барқарор ижобий тенденцияга эга эканини кўрсатди. Янги ташкил этилаётган ҳамда фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектлари сонининг изчил ортиб бориши кичик ва хусусий бизнеснинг миллий иқтисодиётдаги ролини кучайтириб, ялпи ички маҳсулот шаклланиши, аҳоли бандлигини таъминлаш ва ҳудудий ижтимоий-иқтисодий барқарорликка сезиларли ҳисса қўшмоқда.

Шу билан бирга, таҳлил натижалари ҳудудлар ўртасида тадбиркорлик фаоллиги даражаси бўйича муайян номутаносибликлар мавжудлигини очиб берди. Айниқса, пойтахт шаҳри ва иқтисодий инфратузилмаси ривожланган айрим вилоятларда тадбиркорлик субъектлариконцентрацияси юқори бўлиб, камроқ ривожланган ҳудудларда эса тадбиркорлик салоҳияти тўлиқ ишга солинмагани кузатилди. Бу ҳолат ҳудудий иқтисодий ривожланишда мутаносибликни таъминлаш масаласини янада долзарб қилади.

Тадқиқот доирасида олинган натижалар асосида қуйидаги илмий-амалий хулосаларни шакллантириш мумкин:

биринчидан, тадбиркорликни ривожлантириш сиёсатида ҳудудий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда дифференциал ёндашувни кучайтириш зарур;

иккинчидан, иқтисодий фаоллиги паст ҳудудларда инфратузилмани ривожлантириш, молиявий ресурсларга кириш имкониятларини кенгайтириш ҳамда маҳаллий кадрлар салоҳиятини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқилиши лозим;

учинчидан, якка тартибдаги тадбиркорликнинг барқарорлигини таъминлаш мақсадида уни институционал қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Умуман олганда, тадбиркорлик субъектлари демографиясининг ҳудудий таҳлили мамлакатда иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, минтақавий ривожланиш стратегияларини илмий асослаш ҳамда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш учун муҳим аналитик

асос бўлиб хизмат қилади. Мазкур тадқиқот илмий изланишлар учун методологик ва амалий натижалари келгусида ҳудудий тадбиркорлик замин яратади. сиёсатини такомиллаштиришга қаратилган

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси (стат.уз) расмий портали. Кичик тадбиркорлик статистикаси маълумотлари.
2. Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги (сиат.стат.уз) расмий портали. Иқтисодий кўрсаткичлар журнали.
3. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси (солиқ.гов.уз) расмий портали. Тадбиркорлик субъектларининг солиққа тортилиш статистикаси.
4. Лех.уз – Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар портали: “Тадбиркорлик фаолияти тўғрисида” қонуни.
5. Ревеш.уз. “Инфографика: 2024 йилда Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш” (19.08.2025).
6. Кун.уз. Отабек Матназаров. “Қайси ҳудудда кичик корхона ва микрофирмалар сони кўп экани маълум қилинди” (06.04.2024).

Abstract: This scientific article presents a comprehensive analysis of demographic development trends of entrepreneurial entities across the regions of the Republic of Uzbekistan, using the period from 2017 to 2025 as a case study. The research evaluates the dynamics of newly established and operating entrepreneurial entities, their regional disparities, their ratios relative to the working-age population, as well as sustainability indicators of individual entrepreneurship. The analysis is based on official statistical sources and examines the causes of economic imbalances between regions and mechanisms for their mitigation. The research findings have significant scientific and practical relevance for improving regional entrepreneurship policies and developing regional development strategies.

Keywords: entrepreneurial entities, regional development, demographic analysis, economic activity, individual entrepreneur, working-age population.

Аннотация: В данной научной статье проводится комплексный анализ тенденций демографического развития предпринимательских субъектов в региональном разрезе Республики Узбекистан на примере 2017–2025 годов. В ходе исследования оценены динамика количества вновь созданных и действующих предпринимательских субъектов, их региональные различия, соотношение с численностью трудоспособного населения, а также показатели устойчивости индивидуального предпринимательства. Анализ выполнен на основе официальных статистических источников, раскрыты причины экономических диспропорций между регионами и механизмы их сглаживания. Результаты исследования имеют научно-практическую значимость для совершенствования региональной предпринимательской политики и разработки стратегий регионального развития.

Ключевые слова: предпринимательские субъекты, региональное развитие, демографический анализ, экономическая активность, индивидуальный предприниматель, трудоспособное население.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING VIJDON ERKINLIGINI TA’MINLASH VA DINIY SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA MONITORINGI

Musurmon XURRAMOV,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Xalqaro
munosabatlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida parlament nazoratining diniy sohadagi o‘rni va ahamiyati tizimli tarzda tahlil qilinadi. Muallif vijdon erkinligini ta‘minlashda parlament nazoratining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini, uning monitoring mexanizmlari va amaliy shakllarini chuqur o‘rganadi. Shu bilan birga, Oliy Majlis palatalarining diniy tashkilotlar faoliyatiga doir nazorat vakolatlari xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlilda yoritiladi.

Maqolada diniy sohada parlament nazoratini takomillashtirish yo‘llari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda milliy yondashuvlar asosida barqaror va ochiq jamiyat barpo etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, AQSH va Yevropa institutlari faoliyati asosida taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: parlament nazorati, vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, monitoring, qonunchilik, Oliy Majlis, xalqaro tajriba, diniy siyosat.

KIRISH. Parlament nazorati tushunchasi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Parlament nazorati – bu davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati tomonidan davlat hokimiyati tizimidagi boshqa institutlar, xususan ijroiya hokimiyati, mahalliy boshqaruv organlari, davlat dasturlarini ijro etuvchi tuzilmalar, va ayrim hollarda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining qonuniyligini, maqsadga muvofiqligini, ochiqqligini va samaradorligini baholash vositasidir. Bu jarayon xalq nomidan amalga oshiriladi, chunki parlament xalq vakillaridan tashkil topgan oliy vakillik institutidir. Parlament nazorati demokratiya mezonlarining amaliy ifodasi sifatida davlat hokimiyatining tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida parlament nazoratining konstitutsiyaviy asoslari 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 76-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Bunda parlament faqat qonunlar qabul qiluvchi emas, balki ularning ijrosini nazorat qiluvchi organ sifatida ham qatnashadi[1].

Konstitutsiyaning 78-moddasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolatlariga hukumatning, davlat byudjetining ijrosini ko‘rib chiqish, davlat dasturlarining bajarilishini baholash kiradi. 80-moddada esa Senatning vakolatlari qatorida davlat organlarining rahbarlarini tasdiqlash va ularning faoliyati ustidan muayyan nazoratni amalga oshirish imkoniyati ko‘zda tutilgan. Aynan ushbu moddalarga asoslanib, parlament davlat siyosatining barcha sohalarida, jumladan diniy sohada ham, doimiy va tizimli nazoratni yo‘lga qo‘ygan[2].

Parlament nazorati institutining huquqiy mexanizmlari 2016-yil 11-avgustda qabul qilingan "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida tizimli tarzda belgilab qo'yilgan. Mazkur qonun parlament nazoratining aniq subyektlari sifatida Oliy Majlis palatalari, ularning qo'mita va komissiyalari, deputatlar, senatorlar va parlament fraksiyalarini belgilaydi. Shu bilan birga, qonun nazorat shakllarini quyidagicha tartibga soladi[3]:

Deputat va senator so'rovlari;

Parlament eshituvlari;

Davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshiting;

Nazorat tahlillari va monitoringlar;

Parlament tekshiruvlari.

Ushbu nazorat shakllari orqali parlament ijroiya hokimiyatining faoliyatini qonuniylik nuqtai nazaridan tahlil qilish, ijtimoiy muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar taklif qilish huquqiga ega bo'ladi.

Davlat siyosatining ayniqsa nozik sohalaridan biri bo'lgan diniy soha ham parlament nazorati doirasida alohida o'rin tutadi. 2025-yil 25-fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi"da parlament vakolatlarining bu boradagi roli alohida ta'kidlangan. Xususan, Konsepsiyada diniy tashkilotlar faoliyatini qonuniy asosda nazorat qilish, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish, konfessiyalararo muvozanat va bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlash borasida parlament rolini kuchaytirish zarurligi belgilangan[4].

Shuningdek, parlament nazorati xalqaro tajribada ham diniy sohani barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Masalan, Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasi va AQSh Kongressining maxsus diniy erkinlik bo'yicha komissiyalari mavjud bo'lib, ular fuqarolarning vijdon erkinligini himoya qilish bilan birga, hukumatlarning diniy siyosatini doimiy monitoring ostida ushlab turadi.

Umuman olganda, parlament nazorati institutining mustahkam konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining demokratiyani chuqurlashtirish, inson huquqlarini ta'minlash va jamiyatda ochiq muloqot muhitini yaratishga intilayotgan davlat sifatidagi yo'lini ifodalaydi. Ayniqsa, vijdon erkinligi va diniy sohada bu nazorat instituti muvozanat va barqarorlik kafolati sifatida o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Diniy sohada parlament nazorati va uning ahamiyati. Parlament nazorati tushunchasi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Diniy soha jamiyat hayotining eng murakkab va nozik tarmoqlaridan

biri hisoblanadi. Ushbu sohada davlat tomonidan olib boriladigan siyosat, uning qonuniyligi, inson huquqlariga mosligi va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishi bevosita parlament nazoratining samarali tashkil etilishiga bog'liq. Ayniqsa, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati va davlat-din munosabatlarining muvozanatli yuritilishi – bularning barchasi parlament tomonidan muntazam tahlil va monitoring etilishni talab qiluvchi yo'nalishlardir[21].

O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati dunyoviylik prinsipiga tayangan holda shakllanadi. Konstitutsiyaning 61-moddasida aniq belgilanishicha, din davlatdan ajratilgan, diniy tashkilotlar va birlashmalar qonun oldida tengdir, davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Shu bilan birga, davlat jamiyatda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlaydi. Mazkur norma diniy sohada davlatning faolligini emas, balki muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi rolini belgilaydi. Ana shu rolni, eng avvalo, parlament faoliyati orqali ro'yobga chiqarish zarur[5].

Diniy sohadagi parlament nazorati, birinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ikkinchidan, ijro hokimiyatining ushbu sohadagi siyosatini baholash, uchinchidan esa, fuqarolarning diniy erkinliklari ta'minlanishini monitoring qilish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu borada parlament a'zolari, xususan, Qonunchilik palatasining doimiy qo'mitalari va Senatning tegishli qo'mitalari alohida mas'uliyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan) diniy erkinliklarning qonuniy kafolatlarini belgilaydi. Ushbu qonunning amaliyotda qanday tatbiq qilinayotgani, ayniqsa, diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularning moliyaviy shaffofligi, diniy marosimlar o'tkazilish tartibi va diniy ta'lim bo'yicha qonunchilikka amal qilinayotganini nazorat qilish parlament vakolatiga kiradi. Bunday nazorat parlament vakillarining joylardagi monitoringi, tegishli hisobotlar asosida fikr bildirishi va tegishli organlarga qonunchilik tashabbusi bilan chiqish orqali amalga oshiriladi[6].

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" (2025-yil 25-fevralda tasdiqlangan)da alohida band sifatida parlament vakolatlari ta'kidlangan. Konsepsiyaga muvofiq, Oliy Majlis diniy tashkilotlarning qonunga muvofiqligini, diniy sohadagi huquqiy siyosatning izchilligini ta'minlashda, shuningdek, ekstremistik va radikal g'oyalarning diniy niqobda tarqalishiga qarshi chora-tadbirlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi[20].

Bundan tashqari, O'zbekistonning bugungi

kundagi demografik tarkibi, ya'ni aholining aksariyati musulmon bo'lishiga qaramay, turli konfessiyalarning mavjudligi, parlamentni barcha din vakillarining huquq va manfaatlarini teng ta'minlashga mas'ul etadi. Bu esa diniy erkinliklarning faqatgina muayyan guruhlar emas, balki butun jamiyat doirasida adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, diniy masalalarda nazorat faqat parlament eshituvlari bilan cheklanmasligi lozim. Parlament nazorati orqali diniy sohada islohotlarning ijtimoiy samarasini tahlil qilish, aholining ehtiyojlari va ijtimoiy kayfiyatini hisobga olish, qonunchilikni real hayotga moslashtirib borish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari. Fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqi inson huquqlari tizimining ajralmas qismi bo'lib, har qanday demokratik jamiyatda davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi bu huquqni mustahkamlash, uni real hayotda ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan huquqiy, institutsional va nazorat mexanizmlarini shakllantirishda tizimli yondashuvni yo'lga qo'ygan. Ushbu tizimda diniy tashkilotlar faoliyatini monitoring qilish muhim amaliy vosita sifatida qaraladi.

Monitoring – bu bir martalik tekshiruv emas, balki muntazam, tizimli, obyektiv va huquqiy mezonlar asosida olib boriladigan kuzatuv, tahlil va baholash jarayonidir. Bu jarayon vijdon erkinligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining qonuniyligi, samaradorligi va insonparvarlik ruhida amalga oshirilishini kafolatlashga xizmat qiladi. Aynan shuning uchun monitoringni faqat nazorat deb emas, balki fuqarolik jamiyati bilan davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch mexanizmi sifatida baholash lozim[7].

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr) 31-moddasida har kimning vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ushbu norma fuqarolarning diniy yoki dunyoviy e'tiqodga ega bo'lish, diniy marosimlarda ishtirok etish yoki undan voz kechish erkinligini ifodalaydi. Shu bois, bu huquqni ta'minlash amaliy mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etilishi zarur.

Mazkur amaliyotning huquqiy asoslari 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda o'z ifodasini topgan. Qonunning 4-moddasida diniy tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi, ularning ustavi, moliyaviy faoliyati va o'quv dasturlari qonun talablari asosida amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Ushbu qonun asosida davlat diniy tashkilotlar ustidan bevosita aralashsiz, biroq muvofiqlashtiruvchi va monitoring qiluvchi pozitsiyada turadi[8].

Vijdon erkinligini monitoring qilishda quyidagi

asosiy institutlar va mexanizmlar muhim rol o'ynaydi:

1. Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari

Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish, ularning ustav faoliyatiga rioya etilishini kuzatish, qonun buzilishi holatlari bo'yicha rasmiy ogohlantirishlar berish vakolatiga ega. Monitoring jarayonida Adliya organlari diniy tashkilotlarning moliyaviy hisobdorligini, xorijiy mablag'lardan foydalanishini ham nazorat qiladi.

2. Din ishlari bo'yicha qo'mita

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qarashli ushbu qo'mita mamlakatdagi umumiy diniy vaziyatni tahlil qilish, diniy tashkilotlar bilan muloqot olib borish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va yuzaga kelayotgan ijtimoiy-diniy muammolarga javob berish bo'yicha monitoring olib boradi. Qo'mita tomonidan diniy adabiyotlar, va'zlar mazmuni va diniy ta'lim bilan bog'liq faoliyatlar monitoring qilinadi.

3. Ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati

Diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniyligini ta'minlashda xavfsizlik nuqtai nazaridan monitoring olib boradi. Ayniqsa, diniy ekstremizm va radikalizmning oldini olish bo'yicha xavfli tendensiyalarni erta aniqlash maqsadida kuzatuv va tahlil ishlari olib boriladi.

4. Parlament va fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki

"O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi" (2025-yil 25-fevral)da parlament va NNTlarning diniy sohadagi monitoring faoliyatida ishtiroki kengaytirilishi lozimligi belgilangan. Ayniqsa, diniy tashkilotlarning faoliyati ustidan jamoatchilik monitoringi – bu yangi, ochiqlikka asoslangan yondashuv bo'lib, diniy hayotda ishonch va hamkorlik muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi[9].

5. Raqamli monitoring vositalari

So'nggi yillarda davlat organlari tomonidan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida diniy tashkilotlarning ro'yxatdan o'tishi, ularning moliyaviy hisobotlari, diniy adabiyotlarni ekspertizadan o'tkazish jarayonlari elektron shaklga o'tkazilmoqda. Bu esa monitoring jarayonini samaraliroq va shaffofroq qiladi[22].

Monitoring natijalariga ko'ra, diniy tashkilotlarga ogohlantirishlar, tavsiyalar yoki qonunbuzarlik aniqlanganda – sud tartibida ularning faoliyatini to'xtatishgacha bo'lgan choralar qo'llanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy Majlis palatalarining diniy sohadagi nazorat faoliyati: nazorat shakllari va amaliyot. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlament bo'lib, uning Qonunchilik palatasi va Senati davlat hokimiyatining oliy vakillik organi sifatida

mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, turli sohalarida, jumladan diniy sohada samarali parlament nazoratini amalga oshirish vakolatiga ega. Ayniqsa, jamiyatda diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo totuvlik va fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash – bu ikki palataning faoliyatida ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi[19].

Parlamentning diniy sohadagi nazorat vakolatlari, bir tomondan, Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarga, ikkinchi tomondan, amaliy siyosiy ehtiyojlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadlariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- va 80-moddalariga binoan, Qonunchilik palatasi va Senat ijroiya hokimiyatining hisobotini eshitish, davlat dasturlarining ijrosini tahlil qilish, qonunlarning bajarilishini nazorat qilish huquqiga ega[10].

Mazkur vakolatlar asosida Oliy Majlis palatalari diniy sohada quyidagi asosiy nazorat shakllari orqali faoliyat yuritadi:

1. Parlament tinglovlari va hisobotlarni eshitish

Oliy Majlisda davlat organlari rahbarlarining, shu jumladan Adliya vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Ichki ishlar vazirligi hamda mahalliy hokimiyatlar vakillarining diniy sohada amalga oshirayotgan faoliyatiga doir hisobotlari eshitaladi. Bu jarayon parlament vakillarining so'rovlari va fuqarolik jamiyati vakillarining fikrlari asosida tashkil etiladi. Tinglov natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi va zarur hollarda qonunchilik tashabbuslari ko'rib chiqiladi. Masalan, 2023-yilda Senatda "Diniy bag'rikenglikni ta'minlashda davlat organlarining o'zaro hamkorligi" mavzusida parlament tinglovi o'tkazilib, unda Din ishlari bo'yicha qo'mita, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi va boshqa tuzilmalarning faoliyati muhokama qilingan. Bu parlament nazoratining diniy sohada aniq amaliy ko'rinishidir[11].

2. Deputat va senator so'rovlari

Qonuniylik va diniy tashkilotlar faoliyati yuzasidan yuzaga kelgan muammolar bo'yicha deputatlar va senatorlar tegishli vazirlik va idoralarga yozma so'rovlar yuborish huquqiga ega. "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonun (2016-yil 11-avgust) ning 13-moddasiga ko'ra, davlat organlari parlament a'zolarining so'rovlariga belgilangan muddatlarda asosli va huquqiy javob berishi shart. Masalan, ayrim hududlarda diniy tashkilotlar ro'yxatga olinmayotganligi yoki diniy marosimlar o'tkazilishiga to'siqlar qo'yilayotgan holatlar bo'yicha parlament a'zolari vakolatli organlarga murojaat etadi[18].

3. Parlament tekshiruvlari va joylardagi monitoring tashabbuslari

Qonunchilik palatasi va Senatning tegishli qo'mitalari joylarda diniy tashkilotlar faoliyati bilan

tanishish maqsadida tashriflar uyushtiradi. Ushbu tashriflar davomida diniy ta'lim muassasalari, ibodat joylari, diniy adabiyot do'konlari, shuningdek diniy tashkilotlarning jamiyat bilan muloqoti, ularning qonuniy faoliyati monitoring qilinadi. Masalan, 2022-yilda Senat a'zolari tomonidan Farg'ona vodiysi bo'ylab o'tkazilgan monitoringda diniy tashkilotlarning ro'yxatdan o'tishdagi byurokratik to'siqlari bo'yicha muammolar aniqlanib, Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan.

4. Qonunchilik tashabbusi va normativ-huquqiy aktlarni tahlil qilish

Oliy Majlis palatalari diniy sohadagi qonunlar va qarorlar ustidan parlament tahlilini olib boradi. Qonunlarning hayotga tatbiq etilishi, ularning ijrosi va real natijalari o'rganilib, zarur hollarda yangi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri (2021) aynan parlament tashabbusi bilan qabul qilingan huquqiy islohotlardan biridir[12].

5. Jamoatchilik bilan aloqalar va muhokamalar

So'nggi yillarda parlament jamoatchilik bilan ochiq muloqot qilish, diniy tashkilotlar vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari, olimlar va diniy faollar ishtirokida muhokamalar tashkil etishga katta e'tibor qaratmoqda. 2024-yil davomida Oliy Majlis huzurida "Diniy tolerantlik va zamonaviylik" mavzusida davra suhbatlari, xalqaro konferensiyalar tashkil etildi. Bunday tadbirlar orqali parlament nazorati faqat ichki nazorat vositasi emas, balki jamiyat bilan muloqot maydoniga ham aylanmoqda.

Umuman olganda, Oliy Majlis palatalarining diniy sohadagi nazorat faoliyati nafaqat huquqiy masalalarni tartibga soladi, balki fuqarolarning ishonchini mustahkamlaydi, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi, jamiyatdagi turli konfessiyalarning tinch-totuv hayot kechirishiga ijtimoiy-siyosiy kafolat yaratadi. Aynan shunday yondashuv O'zbekiston Respublikasining dunyoviy, tolerant va demokratiyani qadrlovchi davlat sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Parlament nazoratini takomillashtirish istiqbollari: xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar. Zamonaviy demokratik boshqaruvda parlament nazorati tizimi doimo rivojlanish va takomillashuv holatidadir. Ayniqsa, din kabi murakkab va ijtimoiy jihatdan sezgir sohada parlament tomonidan olib boriladigan nazorat faoliyati xalqaro tajribaga suyanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va fuqarolik jamiyati bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali samarali va barqaror natijalar berishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi uchun ham bu yo'nalishda mavjud imkoniyatlar va xalqaro tajribalarning moslashuvchan integratsiyasi parlament nazoratini sifat jihatidan yangi bosqichga

olib chiqishga xizmat qiladi[13].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan konstitutsiyaviy-demokratik davlatlarda parlament nazorati faqat siyosiy muvozanat vositasi emas, balki fuqarolarning asosiy huquqlari, jumladan vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatining ochiqqligini kafolatlovchi institutsional mexanizm sifatida qaraladi. Masalan, Germaniyada Bundestag tomonidan diniy hamjamiyatlar bilan aloqalarni tartibga soluvchi maxsus komissiyalar mavjud bo'lib, ular fuqarolarning diniy erkinliklari buzilishi holatlarini doimiy nazorat ostida ushlab turadi. Yevropa parlamenti esa har yili diniy erkinliklar holati bo'yicha maxsus hisobotlar e'lon qilib, a'zo davlatlarda vijdon erkinligiga oid siyosatni baholab boradi. AQShda esa Kongress qoshidagi Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha maxsus komissiya diniy tashkilotlar faoliyatining qonuniyligini, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq jihatlarni, shuningdek diniy ekstremizmga qarshi kurash choralarini muntazam monitoring qilib boradi. Bu kabi mexanizmlar parlament nazoratining nafaqat ichki siyosatga, balki xalqaro inson huquqlari standartlariga ham integratsiyalashuvini ta'minlaydi[14].

O'zbekiston Respublikasida esa parlament nazoratini takomillashtirish istiqbollari bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Avvalo, nazorat faoliyatini raqamlashtirish zarur. Hozirgi global axborot maydonida parlament a'zolari tomonidan yuborilgan so'rovlarning elektron shaklda kuzatilishi, monitoring ma'lumotlarining ochiq e'lon qilinishi va xalq uchun tushunarli statistik tahlillar taqdim etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bir tomondan ochiqlik va shaffoflikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan parlament nazorati samarasini oshiradi. Bunda xorijiy tajribani hisobga olgan holda, parlament huzurida diniy sohadagi qonunchilik va amaliyotni monitoring qiluvchi maxsus mustaqil sho'ba yoki komissiya tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tuzilma orqali davlat organlarining hisobotlari tizimli tarzda baholanadi, jamiyatdagi diniy kayfiyat va ehtiyojlar tahlil qilinadi, diniy tashkilotlar faoliyatining ochiqligi va qonuniyligi muntazam o'rganib boriladi[15].

Bundan tashqari, parlament nazoratining

fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini mustahkamlash talab etiladi. Bu borada xalqaro tajriba, xususan Skandinaviya mamlakatlarida jamoatchilik kengashlari ishtirokida parlament tinglovlarini tashkil etish amaliyoti alohida e'tiborga molik. O'zbekistonda ham diniy tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jurnalistlar va mustaqil tadqiqotchilar bilan birgalikda ochiq eshituvlar, muhokamalar va monitoring hisobotlarini tayyorlash orqali nazorat samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, Oliy Majlis huzurida faoliyat yuritayotgan qo'mitalarning ekspert salohiyatini mustahkamlash, xalqaro diniy erkinlik standartlari bo'yicha doimiy treninglar va seminarlar o'tkazish, xorijiy parlamentlar bilan tajriba almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozim[16].

Milliy yondashuvda esa O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy konteksti, din va milliy qadriyatlarining o'zaro uzviyligi e'tiborga olinishi lozim. Parlament nazorati ekstremizm va diniy radikalizmga qarshi kurashishda faqat repressiv mexanizm emas, balki ijtimoiy profilaktika vositasi sifatida ishlashi kerak. Shu sababli parlament diniy-ma'rifiy islohotlarning ichki dinamikasini o'rganishi, aholi orasida diniy savodxonlik darajasini oshirish, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom e'tiqod va dunyoviy ongni rivojlantirishga xizmat qiluvchi siyosatni qo'llab-quvvatlashi zarur. Parlament ayni vaqtda qonunchilik tashabbusi orqali din sohasidagi bo'shliqlarni bartaraf etuvchi, diniy tashkilotlarning faoliyatiga ijobiy va huquqiy zamin yaratadigan normativ bazani ham izchil takomillashtirib borishi lozim[17].

Xulosa qilib aytganda, parlament nazoratining zamonaviy bosqichda takomillashuvi O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga intilayotgan demokratik davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir. Xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan milliy yondashuv, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan monitoring tizimi, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda olib boriladigan tahliliy ishlanmalar O'zbekiston parlamentining diniy sohadagi nazorat salohiyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. Toshkent: Lex.uz.
2. Parlament nazorati to'g'risida Qonun. 2016-yil 11-avgust, O'IRQ-408. Toshkent: Lex.uz.
3. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida Qonun. 2021-yil 5-iyul. Toshkent: Lex.uz.
4. Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi. Qabul qilingan 2025-yil 25-fevral. Toshkent: Lex.uz.
5. Vazirlar Mahkamasi. Diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi Nizom. Qaror №196, 2004-yil 23-aprel.
6. Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyati to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasi qarori, 2004-yil.
7. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida Qonun. Toshkent: Lex.uz.

8. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida Qonun. Toshkent: Lex.uz.
9. Axborotlashtirish to'g'risida Qonun. Toshkent: Lex.uz.
10. Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) to'g'risida Qonun. Toshkent: Lex.uz.
11. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. New York: UN, 1948.
12. OSCE/ODIHR. Guidelines for Review of Legislation Pertaining to Religion or Belief. Warsaw: OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights, 2019.
13. United States Commission on International Religious Freedom. Annual Report 2022. Washington, DC: USCIRF, 2022.
14. Deutscher Bundestag. Reports on Religious Affairs. Berlin: Bundestag Publications, 2020.
15. European Parliament. Resolution on Religious Freedom in the EU. Brussels: European Union, 2021.
16. Venice Commission. Compilation of Opinions on the Freedom of Religion and Belief. Strasbourg: Council of Europe, 2020.
17. Axmedova, Ziyoda. "Parlament nazorati institutining huquqiy asoslari." Huquq va Demokratiya 3 (2020): 22–27.
18. Mamarasulov, Anvar. "Diniy tashkilotlar ustidan davlat nazorati: huquqiy mexanizmlar." Yuridik Fanlar Axborotnomasi 2 (2021): 41–48.
19. Komilov, Alisher. "Vijdon erkinligi: tushuncha va xalqaro huquqiy yondashuvlar." Tafakkur Jurnal 4 (2022): 60–67.
20. Mahmudova, Dilnoza. "Parlament monitoring tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni." Davlat boshqaruvi va jamiyat 1 (2023): 18–24.
21. Norbo'tayev, Islom. "O'zbekiston va xorijda parlament nazoratining komparativ tahlili." Jahon siyosati va huquq 3 (2023): 74–82.
22. Rustamova, Laylo. "Oliy Majlis faoliyatining demokratik nazorat mexanizmlari." Ijtimoiy fanlar yutuqlari 2 (2022): 50–55.

Аннотация: В данной статье системно анализируется роль и значение парламентского контроля в религиозной сфере Республики Узбекистан. Автор подробно рассматривает конституционно-правовые основы контроля парламента за обеспечением свободы совести, механизмы мониторинга и практические формы осуществления надзора. Также рассматриваются контрольные полномочия палат Олий Мажлиса в отношении деятельности религиозных организаций в сравнении с международным опытом.

В статье предложены пути совершенствования парламентского контроля в религиозной сфере, в том числе с использованием цифровых технологий, укреплением сотрудничества с гражданским обществом и развитием устойчивого и открытого общества на основе национальных подходов. Рекомендации разработаны на основе опыта Германии, США и европейских институтов.

Ключевые слова: парламентский контроль, свобода совести, религиозные организации, мониторинг, законодательство, Олий Мажлис, международный опыт, религиозная политика.

Annotation: This article systematically analyzes the role and significance of parliamentary oversight in the religious sphere of the Republic of Uzbekistan. The author examines the constitutional and legal foundations of parliamentary control in ensuring freedom of conscience, including its monitoring mechanisms and practical forms. In addition, the supervisory powers of the chambers of the Oliy Majlis over the activities of religious organizations are discussed through comparative analysis with international experiences.

The article explores ways to improve parliamentary control in religious affairs, including the use of digital technologies, strengthening cooperation with civil society, and building an open and stable society through national approaches. Recommendations are presented based on international practices, particularly those of Germany, the USA, and European institutions.

Key words: parliamentary control, freedom of conscience, religious organizations, monitoring, legislation, Oliy Majlis, international practice, religious policy.

ANALYZING GLOBAL UNIVERSITY RANKINGS: TRENDS AND IMPLICATIONS

Shoxrux Orziqulov,

PhD student of the Institute for Research of the Youth Problems and Training Perspective Personnel.

Abstract. This article explores the close relationship between national development and the quality of education, particularly in the context of countries whose universities are ranked among the top 100 in the world. It highlights how the most developed countries—such as the United States, the United Kingdom, Switzerland, China, Germany, Canada, and Japan—also lead in terms of the number and rank of universities in global educational rankings. The study emphasizes that educational advancement is a critical driver of national progress, with each country's ability to invest in and improve its educational infrastructure having a direct impact on its global economic and political standing. The article also highlights the implications for third world countries, where improving the education system could play a pivotal role in boosting national development and global influence.

Key words. National development, educational advancement, global university rankings, economic growth, educational infrastructure, top 100 universities, global competitiveness.

Introduction. The global university rankings are an important metric for assessing the quality and competitiveness of higher education systems worldwide. These rankings, published by organizations such as QS World University Rankings, Times Higher Education, and ARWU, provide insight into the research output, academic reputation, and international collaborations of universities. Analyzing the countries that consistently feature in the top 100 rankings reveals an undeniable connection between educational quality and national development. Highly ranked universities are often found in the most economically developed nations, supporting the hypothesis that the progress of a country is directly related to the strength of its educational system.

As Hazelkorn argues in *Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence*, the global university rankings have increasingly become a driving force in shaping national and institutional strategies. They not only measure educational excellence but have also transformed the global higher education landscape, creating an intense competition for

prestige and resources. Hazelkorn emphasizes that universities and nations are not merely reacting to these rankings but are actively using them to enhance their reputation, attract international talent, and bolster their political and economic power on the global stage. This reshaping of higher education systems around the pursuit of higher rankings further illustrates the connection between education quality and national competitiveness, reinforcing the idea that countries can leverage strong educational frameworks to advance their global influence¹.

This article explores the relationship between national development and the quality of education, specifically focusing on the presence of universities in the top 100 rankings. By examining the rankings of countries like the United States, the United Kingdom, Switzerland, China, Germany, Canada, Japan and so on, the study demonstrates how countries can leverage strong educational frameworks to bolster their overall economic and political power. Universities and other educational institutions function not only as institutions that impart knowledge, but also as centers for shaping and implementing policy². The analysis also

¹ Hazelkorn, Ellen. *Rankings and the reshaping of higher education: The battle for world-class excellence*. Springer, 2015.

² Diyurov, Sardorbek. "Siyosatni shakillantirish va amalga oshirishda ta'lim muassasalari ishtiroki." *News of the NUUZ* 1.1.8 (2024): 70-72.

suggests that third world countries, which are striving to enhance their global role, can achieve significant progress by prioritizing educational reform and investment.

Methodology. The analysis presented in this article is based on data from the latest global university rankings, focusing on the number of universities in the top 100 and the highest rank achieved by any university from each country. This allows for a comprehensive understanding of both

the breadth of top institutions in each country and their relative standing on the global scale.

Results and Discussion. Table 1 presents an overview of the number of universities from each country in the top 100 rankings, along with the highest-ranked institution from each country. This data provides valuable insight into both the breadth of universities from each country and the top-ranking institution’s global standing.

Country	Number of Universities in Top 100	Highest Rank Achieved
United Kingdom	12	1 - University of Oxford
United States	38	2 - Massachusetts Institute of Technology
Switzerland	2	11 - ETH Zurich
China	7	12 - Tsinghua University
Singapore	2	17 - National University of Singapore
Canada	3	21 - University of Toronto
Germany	8	26 - Technical University of Munich
Japan	3	28 - The University of Tokyo
Hong Kong	5	35 - University of Hong Kong
Australia	6	39 - University of Melbourne
France	4	42 - Paris Sciences et Lettres – PSL Research University Paris
Belgium	1	43 - KU Leuven
Sweden	3	49 - Karolinska Institute
Netherlands	5	56 - Delft University of Technology
South Korea	2	62 - Seoul National University
Denmark	1	97 - University of Copenhagen

Table 1³

Dominance of the United States and United Kingdom: The United States and the United Kingdom maintain a stronghold on the global university rankings, with the U.S. contributing 38 universities and the U.K. 12 universities to the top 100. This dominance is indicative of long-standing investments in research, faculty excellence, and international academic collaboration. The U.S. has the highest number of universities in the rankings, with institutions like Harvard, MIT, and Stanford consistently occupying top spots. Similarly, the U.K.’s universities, including Oxford and Cambridge, continue to be global leaders, with Oxford securing the highest rank at number 1. The impact of such universities extends beyond education; they act as engines of economic innovation and political influence.

Scholars such as Mete Kurtoglu in *The Dream is Over: The Crisis of Clark Kerr’s California Idea of Higher Education* argue that the U.S. dominance in global university rankings is deeply tied to its historical investment in higher education and its integration with industries. According to Kurtoglu, universities like MIT and Stanford not only contribute to academic knowledge but are also central to the U.S. economic and technological sectors, playing a pivotal role in fostering innovation and research commercialization⁴. This symbiotic relationship between higher education and industry enhances the global impact of these institutions, influencing not only national economies but also shaping global technological trends.

Hazelkorn also provides insight into this dominance, asserting in *Rankings and the Reshaping*

³ Times Higher Education Rankings-world university ranking 2025.

⁴ Kurtoglu, Mete. "The Dream is Over The Crisis of Clark Kerr’s California Idea of Higher Education." (2018).

of Higher Education that rankings have become a self-reinforcing mechanism for top universities in the U.S. and U.K. By consistently securing top positions, these universities attract further investment, global talent, and international partnerships. This strategic use of rankings, according to Hazelkorn, ensures that institutions like MIT and Oxford not only retain their prestige but also continue to set the global academic and research agendas⁵.

Taking MIT as an example: ranked second globally, it is known for its cutting-edge research and contributions to technological advancements, from artificial intelligence to renewable energy solutions. The economic impact of such institutions extends globally, influencing not only the U.S. economy but also shaping global technological trends. As Castells points out in *The Rise of the Network Society*, universities like MIT are crucial in fostering the knowledge-based economy, where their research capabilities become central to both national economic strategies and global development. The innovation generated by such universities leads to the creation of new industries, technologies, and markets, further consolidating their role as engines of both economic and political influence⁶.

The Rise of Asian Institutions: In recent decades, Asian countries have made remarkable progress in education, and this is reflected in the increasing number of their universities appearing in the top 100 rankings. China, with 7 universities in the top 100 and Tsinghua University ranking 12th, exemplifies this shift. China's government has invested heavily in higher education and research, making significant strides in science, technology, and engineering. The rise of Chinese universities challenges the traditional dominance of Western institutions, particularly in fields such as engineering and computer science. As Altbach discusses in *Globalization and the University: Realities in an Unequal World*, the globalization of higher education has created a scenario where top universities were historically concentrated in the U.S. and Western Europe, but now Asian countries, like China, are working tirelessly to improve their higher education systems and achieve a competitive global position⁷.

Zgaga adds to this discussion by emphasizing that higher education plays a pivotal role in national development, particularly in emerging economies. According to Zgaga, the investment in education is essential for the economic and social transformation of countries, especially in regions such as South-East Europe and Asia. Zgaga argues that

universities act as engines of innovation and social change, contributing not only to the development of knowledge but also to the broader socio-economic progress of nations. In the case of China and other East Asian nations, this investment has enabled the transformation of their higher education systems into key drivers of global competitiveness⁸.

Singapore is another example, with the National University of Singapore (NUS) ranking 17th globally. NUS has earned its place by emphasizing research innovation and international collaboration. The nation's policy of investing in higher education as a driver of economic and social progress has propelled Singapore into the ranks of academic powerhouses.

Hong Kong and South Korea further illustrate the growing academic influence of East Asia, with institutions like Hong Kong University ranked 35 and Seoul National University ranked 62 representing the region's academic prowess. Japan, while maintaining a presence with 3 universities, shows the challenges faced by its higher education system in competing globally.

Strong Representation from European Nations: The United Kingdom continues to hold a dominant position in global university rankings, with Oxford and Cambridge standing as symbols of world-class education. These institutions have established a legacy that goes beyond academics; they significantly influence global politics, leveraging soft power to enhance the UK's international standing. Their role as educational leaders allows them to shape not just the intellectual landscape but also the political and diplomatic environment, furthering the country's global reach and influence.

Switzerland, Germany, France, the Netherlands, Sweden, and Belgium all contribute universities to the top 100, with Switzerland's ETH Zurich standing out as the highest-ranked institution from the country at 11. Germany, known for its engineering and technical prowess, has 8 universities in the top 100, with a highest rank of 26 (Technical University of Munich). It is another key player, particularly known for its engineering programs. Germany's commitment to academic rigor and innovation in technology has helped position its universities as leaders on the global stage, enhancing the country's economic prowess, particularly in manufacturing and industrial sectors.

France, the Netherlands, and Sweden continue to show strong academic results, with institutions like PSL Research University Paris ranked 42, Delft University of Technology ranked 56 and Karolinska

⁵ Hazelkorn, Ellen. *Rankings and the reshaping of higher education: The battle for world-class excellence*. Springer, 2015.

⁶ Castells, Manuel. *The rise of the network society*. John Wiley & Sons, 2011.

⁷ Altbach, Philip G. "Globalization and the university: Realities in an unequal world." *Tradition and Transition*. Brill, 2007. 23-48.

⁸ Zgaga, Pavel. "The Role of Higher Education in National Development." *South-Eastern Europe and Reconstruction of the Western Balkans (2010)*.

Institute ranked 49 representing their countries well. Despite fewer universities in the top 100, countries like Belgium and Denmark prove that smaller nations can still produce world-class academic institutions, such as KU Leuven from Belgium, ranked 43.

The United Kingdom, ranked 1st in “Well-Distributed Political Power” according to U.S. News Best Countries rankings, stands at 2nd for the number of universities in the top global rankings and 1st in terms of their quality. Similarly, Switzerland and Germany occupy 4th and 5th positions, respectively, in the political power distribution rankings. These nations’ political stability and governance contribute significantly to the strength of their educational systems and the strength of the education systems contribute nations’ political stability and governance. The high rankings of their universities reflect the link between a well-distributed political structure and overall national development.

Geographical Imbalances and Emerging Powers: There is a noticeable geographical imbalance in the global rankings. North America and Europe dominate the top 100, while regions like Africa and Latin America are largely underrepresented. The increasing participation of Asian countries signals a shift in global educational influence, though universities in emerging economies still face challenges in competing with their Western counterparts in terms of funding, research output, and global reputation. As China and other countries in Asia continue to invest heavily in education, it is likely that we will see further changes in the rankings in the coming decades.

Implications for Global Higher Education: As universities from the U.S. and the U.K. continue to dominate global rankings, questions are raised about the long-term sustainability of their positions as leaders in higher education. The growing competition from Asia and Europe suggests that the landscape of academic excellence may be undergoing a significant shift, driven by broader economic, technological, and geopolitical transformations. In particular, China’s substantial investments in education, infrastructure, and research are positioning its universities to not only catch up with but potentially surpass their Western counterparts in specific disciplines.

This trend is especially noticeable in East Asia, where countries such as China, Japan, Singapore, and South Korea are rapidly advancing their higher education systems. While Western institutions have traditionally been seen as the epitome of academic rigor and innovation, universities in East

Asia are increasingly challenging these paradigms by adopting innovative teaching methods, investing heavily in cutting-edge research, and fostering international collaborations. This shift is most evident in fields such as engineering, technology, and business, where East Asian universities are not only meeting global standards but in some cases, setting new benchmarks for excellence.

The rise of East Asian universities reflects a broader global realignment in higher education, where the focus is expanding beyond traditional Western dominance. The evolving global academic landscape presents both challenges and opportunities for universities worldwide, as they seek to maintain their competitive edge in an increasingly interconnected and dynamic global economy.

For third world countries, the key takeaway is the importance of investing in higher education to foster national development. By prioritizing educational reforms and improving the quality of universities, emerging economies can enhance their global competitiveness and play a more prominent role in international affairs. Education is not just a local issue – it is a global one. Countries that invest in education today will shape the world of tomorrow, as Ennew, Christine, and David Greenaway suggest in *The Globalization of Higher Education*. They argue that the global race for academic and research excellence is intensifying, and those countries that understand and invest in the changing dynamics of higher education will secure a place in the future knowledge economy.

Conclusion. The distribution of universities in the top 100 global rankings reveals important trends in the shifting dynamics of higher education. While the U.S. and U.K. continue to dominate, emerging nations in Asia and Europe are increasingly establishing themselves as academic powerhouses. This diversification reflects broader trends in global economic development and technological advancement, as well as the importance of strategic investment in education. As universities worldwide continue to adapt to the challenges of the global academic market, we can expect further changes in the rankings, with greater representation from emerging economies and a continued emphasis on international collaboration and innovation.

By examining the trends highlighted in the global university rankings, policymakers, educators, and institutions can better understand the evolving educational landscape and make informed decisions to foster academic excellence and global competitiveness.

REFERENCES:

1. Altbach, Philip G. "Globalization and the university: Realities in an unequal world." Tradition and Transition. Brill, 2007. 23-48.
 2. Castells, Manuel. The rise of the network society. John Wiley & Sons, 2011.
 3. Diyorov, Sardorbek. "Siyosatni shakillantirish va amalga oshirishda ta'lim muassasalari ishtiroki." News of the NUUz 1.1.8 (2024): 70-72.
 4. Ennew, Christine, and David Greenaway, eds. The globalization of higher education. Springer, 2012.
 5. Hazelkorn, Ellen. Rankings and the reshaping of higher education: The battle for world-class excellence. Springer, 2015.
 6. Kurtoglu, Mete. "The Dream is Over The Crisis of Clark Kerr's California Idea of Higher Education." (2018).
 7. Times Higher Education Rankings-world university ranking 2025
 8. Zgaga, Pavel. "The Role of Higher Education in National Development." South-Eastern Europe and Reconstruction of the Western Balkans (2010)
 9. <https://www.usnews.com/news/best-countries/rankings/well-distributed-political-power>
-

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MILLIY-MA'NAVIY O'ZLIGINI SAQLASHNING ASOSIY OMILLARI VA MEXANIZMLARI

Zafar ARSLONOV,

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va
istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch
doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining yoshlar ma'naviy hayotiga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va muammolar tahlil qilingan. Yoshlar orasida raqamli muhit va migratsiya kabi global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ijobiy hamda salbiy ta'sirlari yoritilgan. Maqolada yoshlarga oid davlat siyosati misolida yoshlar ma'naviyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etilib, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Xulosa qismida yoshlar tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv; ijtimoiy-madaniy jarayonlar; yoshlar ma'naviyati; raqamli muhit; migratsiya; axborot xurujlari; oilaviy qadriyatlar; yoshlar siyosati; mafkuraviy barqarorlik.

Kirish. Globallashuv va ijtimoiy tarmoqlar ommalashib borayotgan bir davrda yoshlarni turli mafkuraviy, g'oyaviy va ma'naviy xurujlardan himoya qilish ularni ayniqsa o'smirlik davrida turli noto'g'ri yo'llarga kirib qolishidan, bilimsizlik va tajribasizlik natijasida kelgusi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday muammolar kelib chiqishini oldini olish maqsadida bir qancha qonunlar jumladan, 14.09.2016-yildagi **“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”**gi Qonun (O'RQ-406-son), 19.01.2022-yildagi **“Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi

(PQ-92-son) qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021-yildagi **“O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”**gi hamda 7.07.2022-yildagi **“Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari**

to'g'risida”gi qarorlari qabul qilingan.

Shunga qaramasdan jamiyat hayotining ba'zi qismlarida yoshlar hayoti va kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi **onlayn qimor** o'yinlariga yoki **spirtli ichimliklarga** ruju qo'yish, **giyohvandlik va psixotrop moddalar** iste'mol qilish, **oilaviy ajrimlar** hamda **janjallar** kabi salbiy holatlar kuzatilib turibdi.

Bugungi kunda axborot almashinuvi tezlashib, globallashgan madaniyat shakllanmoqda. Xususan, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali turli g'oyalar va madaniy qadriyatlar yoshlar ongiga tez va keng ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, globallashuv yoshlar ma'naviyatiga ijobiy va salbiy ikki xil yo'nalishda ta'sir qilmoqda: bir tomondan, globallashuv yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalarga oshno etayotgan bo'lsa, boshqa tomondan – ayrim hollarda an'anaviy ma'naviy qadriyatlarning susayishiga, madaniy unifikatsiyaga olib kelmoqda [1].

Yoshlar tarbiyasi masalasi O'zbekistonda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimiz

¹ THE MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE SPIRITUAL LIFE OF YOUNG PEOPLE AND THEIR CHARACTERISTICS | Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2131>.

aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi [2]. Bu holat davlat oldiga yoshlar masalasini ustuvor vazifa sifatida qo'yib, ularning ma'naviy kamolotini ta'minlashni talab qilmoqda. Jumladan, 2016-yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun hamda 2021-yilda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va yoshlarni turli zararli ta'sirlardan asrash bugungi davrning muhim vazifasidir [3]. Zero, yoshlar ma'naviyatli, bilimli va sog'lom dunyoqarashga ega bo'lsagina, jamiyatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatiga ta'sirlar

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar yoshlar hayot tarzini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli muhitning jadal rivojlanishi natijasida axborotning cheksiz oqimi paydo bo'ldi. Yoshlar dunyoning istalgan burchagidagi yangilik va g'oyalardan bir zumda xabardor bo'lmoqda, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'lmoqda. Masalan, xorijiy tillarni o'rganish, xalqaro onlayn kurslarda tahsil olish va madaniyatlararo aloqa qilish yoshlar ma'naviy dunyoqarashining boyishiga xizmat qilmoqda. Global tarmoq orqali yoshlar ilm-fan yutuqlari, dunyoviy va diniy bilimlarni osonlik bilan o'zlashtirmoqda. Bu jarayonning ijobiy jihatlari qatorida, albatta, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, bag'rikenglik va xalqlar madaniyatini tushunish kabi fazilatlar shakllanishini e'tirof etish lozim.

Shu bilan birga, globallashuvning salbiy ta'sirlari ham yoshlar ma'naviyatida namoyon bo'lmoqda. Avvalo, ommaviy madaniyatning kuchayishi milliy va oilaviy qadriyatlarga bepisandlikni kuchaytirishi mumkin. Dunyo miqyosida yengil hayot tarzi, iste'molchilikka undaydigan "ommaviy madaniyat" mahsulotlari (filmlar, shoular, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar va boshqalar) yoshlarning ongiga singib borishi kuzatilmoqda. Natijada ayrim yoshlar milliy urf-odat va an'analarni "zamonaviylik" yo'lida ortiqcha deb baholay boshlashi mumkin. Ba'zi hollarda globallashuv ta'sirida shakllanayotgan yot g'oyalar yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq paydo qilishi, ular orasida individualizm, hedonizm kabi tendensiyalarni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Zamonamiz sotsiologlari ta'kidlaganidek, globallashuv ta'sirida mahalliy madaniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish pasayishi va universallashtirgan madaniyatga moyillik

kuchayishi mumkin [1].

Globallashuv davrida migratsiya jarayonlari ham yoshlar ma'naviyatiga muayyan ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarning xorijga o'qish yoki ish izlab chiqishi ularning boshqa xalqlar madaniy muhitiga kirishuvini ta'minlaydi. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning dunyoqarashini boyitsa-da, boshqa tomondan, ularning milliy o'zligini anglashida ikkilanishlar keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, chet elda vaqtincha mehnat qilayotgan yoki tahsil olayotgan ayrim yoshlar orasida mahalliy urf-odatlardan uzoqlashish, oila va jamiyatdan begonalashish holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o'ziga xosligini asrab qolish masalasi dolzarbdir.

Raqamli texnologiyalar rivoji axborot olish bilan birga, axborot xurujlari xavfini ham oshirdi. Hozirgi kunda turli ekstremistik va radikal guruhlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongini zaharlashga urinmoqda. Virtual makonda yoshlar ko'pincha yolg'on va buzg'unchi g'oyalarga duch kelmoqda. Ayniqsa, diniy ekstremizm va missionerlikka oid mafkuraviy xurujlar globallashuv davrida transmilliy tus oldi. Bu holatda mafkuraviy immuniteti sust yoshlar "yot g'oyalar"ga qo'shilib ketish xavfi ostida qolmoqda. Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2017-yilda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlanganidek, "turli yot oqimlarga qo'shilib, ular tarafida bo'lish O'zbekiston fuqarosiga to'g'ri kelmaydi. Sizlar (imom-xatiblar) insonlar miyasida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lmasligiga harakat qilishingiz zarur" – bu fikr yoshlarni zararli mafkuraviy ta'sirlardan asrash naqadar muhimligini ko'rsatadi [4]. Globallashuv sharoitida yoshlar ongini turli axborot xurujlaridan himoyalash masalasi shu bois dolzarb sanaladi.

Yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi omillar

Globallashgan zamonda yoshlar ma'naviyatiga ichki va tashqi bir qator omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, jamiyatimiz uchun yangilanayotgan hayot tarzi fonida ayrim yoshlar orasida turli zararli odatlarga ruju qo'yish holatlari kuzatilmoqda. Yoshlar o'rtasida spirtli ichimlikka mukkasidan ketish, giyohvand moddalarga qiziqish, qimor va onlayn o'yinlarga berilib ketish kabi illatlar ularning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lmoqda. O'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijasiga ko'ra, respondentlar yoshlar rivojlanishiga eng katta tahdidlar sifatida ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar (22,9%) hamda maqsadsizlik va vaqtni behuda sarflash (20,9%) omillarini tilga olganlar. Shuningdek, zararli odatlarga berilish (13,6%), sifatli ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi (9,7%) va korrupsiya (7,3%) ham yoshlar uchun jiddiy

² O'zbekiston yoshlari: yangi imkoniyatlar va istiqbollar yo'lida <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-yoshlari-yangi-imkoniyatlar-va-istiqbollar-yolida>.

muammolar sirasiga kiradi [3, 5]. Bu ko'rsatkichlar yoshlar ma'naviy rivojiga nafaqat globallashuv, balki mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi omillardan yana biri – internet va ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketish, virtual hayotga berilib, real hayotdagi maqsad va vazifalardan chalg'ishdir. So'rovnomaga natijalariga ko'ra, yoshlarning 10,6 foizi Internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni eng xavfli tendensiyalardan biri sifatida qayd etgan. Haqiqatdan ham, o'smir yoshdagi ko'plab o'g'il-qizlarning kun tartibida internetdagi muloqot va o'yinlar asosiy o'rinni egallamoqda. Raqamli odatlarning bunday kuchayishi yoshlarni kitob o'qish, ijodiy va jismoniy faoliyatdan chalg'itib, ularning ma'naviy kamolotiga to'sqinlik qilmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib O'zbekiston aholisining 67 foizi o'z uyida internetdan foydalanmoqda, bu ko'rsatkich so'nggi yillarda keskin oshganini ko'rsatadi [5]. Internet auditoriyasining kengayishi axborot oqimini kuchaytirib, nazoratsiz kontentga moyillikni o'rtirmoqda. Shu bois, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish, onlayn makondagi zararli odatlardan saqlanish madaniyatini shakllantirish dolzarbdir.

Oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi ham yoshlar ma'naviyatiga ta'sir etuvchi muhim omillardandir. So'nggi yillarda dunyo bo'ylab oilaviy ajrimlar sonining ortishi barcha jamiyatshunos olimlarni tashvishga solmoqda. Xususan, yosh oilalar o'rtasida ajralishlar ko'payishi yosh avlodga oilaga sadoqat va hurmat tushunchalari susayib borayotganini ko'rsatadi. Milliy mentalitetimizda oilaviy tarbiya va an'analar ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa-da, ayrim "zamonaviy" qarashlar, internetdagi ayrim blogerlarning oilaviy hayotni yengil qabul qilishga undovchi chiqishlari yoshlar orasida baxtli oila tushunchasini so'roq ostiga qo'yimoqda. Natijada, yoshlarning o'z oilasiga bo'lgan mehr-e'tibori va sadoqati zaiflashishi, notinch oilalar sonining ortishi kuzatilmoqda. Oilaviy muhitning beqarorlashuvi yoshlar ma'naviyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning psixologik holatiga ham putur yetkazishi mumkin. Zero, oilada tarbiya topgan sog'lom muhit yoshlar uchun eng kuchli ma'naviy tayanchdir.

Yuqoridagi omillar – iqtisodiy qiyinchiliklar, axborot xurujlari, zararli odatlar, oilaviy muhitdagi muammolar – birlashib, globallashuv kontekstida yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi murakkab muhitni shakllantirmoqda. Bu tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rilmasa, kelajak avlodning ma'naviy yetukligi xavf ostida qolishi mumkin. Shu bois, yoshlar o'rtasida ma'naviy bo'shliqning oldini olish, ularni jamiyatga foydali va vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish uchun kompleks

yondashuv zarur.

Yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni globallashuvning salbiy ta'sirlaridan himoyalash borasida davlat va jamiyat tomonidan tizimli choralar ko'rilishi lozim. Avvalo, oilaviy tarbiyani kuchaytirish birlamchi vazifa sifatida e'tirof etiladi. Oila instituti jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, farzandning dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi avvalo oilada shakllanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar orasida tarbiyaviy muammolarni bartaraf etishda eng samarali chora oilaviy tarbiyani kuchaytirish deb topilgan (28,9% respondentlar) [3]. Shu sababli, otionalarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish zarur. Oilada sog'lom muhitni ta'minlash orqali yoshlarning ongida milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirish mumkin.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirish ham ularning ma'naviy kamoloti uchun muhim shartdir. So'rovlar natijasida yoshlar salbiy xulq-atvorini kamaytirishda ish bilan bandlikni oshirish (19,4%), ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish (16,3%) va yoshlarni sport hamda ijodiy to'garaklarga jalb qilish (16,2%) muhimligini ta'kidlaganlar [3, 6]. Demak, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bepul kasb-hunar va xorijiy tillar kurslarini tashkil etish kabi choralar e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu nafaqat yoshlarni band qilishi, balki ularning jamiyatga foydali a'zo bo'lib shakllanishiga ko'mak beradi. Shu bilan birga, sport-musobaqalar, madaniy va ilmiy tanlovlar orqali yoshlarning o'z qobiliyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratish ularda sog'lom raqobat, jamoaviylik va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Raqamli muhitda yoshlar mafkuraviy barqarorligini ta'minlash uchun ularning media savodxonligini oshirish dolzarbdir. Maktab va oliy ta'lim tizimida media madaniyat va axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilishi zarur. Yoshlar internetdan foydalanganida, axborot oqimini tanqidiy tahlil qilish, feyk xabarlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shu maqsadda, ta'lim muassasalarida **"raqamli immunitet"** konsepsiyasini joriy etish taklif etiladi, ya'ni o'quvchi-talabalarga onlayn makondagi xavf-xatarlar va ulardan himoyalalanish yo'llari muntazam o'rgatib borilishi lozim. Bundan tashqari, Yoshlar ittifoqi, Mahalla kabi jamoat tuzilmalari orqali internetdagi zararli kontent va guruhlariga qarshi targ'ibot ishlarini kuchaytirish kerak bo'ladi. Masalan, tajribali

psixolog va dinshunoslar ishtirokida yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda maslahat beruvchi, savollariga javob qaytaruvchi maxsus onlayn platformalarni shakllantirish mumkin. Bu orqali yoshlar o'zlarini qiziqtirgan yoki chalg'itayotgan masalalar yuzasidan to'g'ri ma'lumot va maslahat olish imkoniga ega bo'ladilar.

Yoshlar ma'naviyatini mustahkamlashda ta'lim muassasalari va mahalla instituti ham alohida o'rin tutadi. Maktab, kollej va universitetlarda ma'naviyat va ma'rifat soatlari, davra suhbatlari, mutafakkirlar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlarni zamonaviy usullar bilan boyitish lozim [7]. An'anaviy ma'naviyat darslarini interaktiv va hayotiy misollar bilan o'tib, yoshlarning ongiga tez singadigan tarzda yetkazish muhim. Mahallalarda esa yoshlar yetakchilari va nuroniy otaxon-onaxonlarning hamkorligida yosh oilalar va o'smirlar bilan maqsadli ishlash tizimini yo'lga qo'yish kerak. Zero, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlash barchaning – oilaning, mahalla va ta'lim muassasalarining – hamkorlikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshadi.

Yoshlar o'rtasida mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi – ularda **milliy g'oya va mafkuraga sadoqat** tuyg'usini mustahkamlashdir. Bugungi globallashuv davrida har bir yurt o'z yoshlarini milliy manfaatlar va taraqqiyot g'oyalari uchun ishonira olmasa, ularning qalbini begonalar g'oyalari egallashi mumkin. Shuning uchun yosh avlodga milliy g'oya va istiqloq mafkurasining mazmun-mohiyatini chuqur anglatish zarur. Ta'kidlash joizki, yuksak ma'naviyat va mustahkam mafkuraga ega xalqni hech qanday tashqi kuch yengolmaydi. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ham globallashuv davrida yot g'oyalarga qarshi "ma'naviyatli inson – yengilmas kuch" tamoyili ilgari surilgan edi. Bu g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yoshlar qalbidagi Vatanga muhabbat, millatga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'ularini kuchaytirish eng samarali "immunitet" vazifasini o'taydi.

Yuqorida qayd etilgan choralarni tizimli amalga oshirish orqali globallashuv kontekstida yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, aksincha, uning ijobiy imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish mumkin bo'ladi. Quyida yoshlar ma'naviy kamolotini ta'minlash va mafkuraviy barqarorligini oshirish bo'yicha asosiy tavsiyalar jamlanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Yoshlar ma'naviyatini asrash va rivojlantirish, ularni global tahdidlardan himoya qilish milliy taraqqiyot va xavfsizlikning muhim shartidir. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga

kelindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Oilaviy tarbiyani kuchaytirish.** Yosh avlodning mafkuraviy immunitetini oshirish avvalo oiladan boshlanadi. Shuning uchun ota-onalarning mas'uliyatini yana-da oshirib, ular uchun muntazam ma'naviy-ma'rifiy seminarlar, treninglar tashkil etish zarur. Farzandlarda milliy an'ana va qadriyatlarga hurmatni oshirish uchun oilaviy tadbirlar (kitobxonlik kechalari, ajdodlar tarixini o'rganish) rag'batlantirilishi lozim.

2. **Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish.** Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. O'quv dasturlariga axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, media savodxonlik bo'yicha qo'shimcha modullar kiritish, ta'lim muassasalarida ma'naviy muhitni monitoring qilib borish taklif etiladi.

3. **Yoshlarning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish.** Ishsizlik va maqsadsizlik kabi omillar yoshlarni zararli yo'llarga boshlashi mumkin. Shu bois, hukumat va mahalliy idoralar tomonidan yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirilishi kerak. Shuningdek, har bir mahallada sport seksiyalari, ijodiy to'garaklar va boshqa ijobiy mashg'ulotlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq.

4. **Raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta'minlash.** Yoshlarni internetdagi zararli axborotdan himoya qilish uchun ularning raqamli madaniyatini oshirish lozim. Maxsus onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali zararli kontentni filtrlash, yoshlar uchun mo'ljallangan foydali veb-saytlar katalogini shakllantirish taklifi beriladi. Shu bilan birga, kibermakonni nazorat qilishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati hamkorligini ta'minlash, internetda yoshlar uchun xavfsiz muhit yaratish muhimdir.

5. **Mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish.** Yoshlar ongida milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sadoqatni mustahkamlash davom ettirilsin. Bu borada ommaviy axborot vositalarida yoshlar uchun mo'ljallangan yuqori badiiy va vatanparvarlik ruhidagi kontent (filmlar, ko'rsatuvlar) ulushini oshirish, ijtimoiy tarmoqlarda yurtimiz qahramonlari, yetuk shaxslar hayoti va mehnati targ'ibotini kuchaytirish lozim. Shuningdek, diniy-ma'rifiy sohada yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassislar (imom-xatiblar, psixologlar) malakasini oshirish, ular orqali "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilini hayotga tatbiq etish dardkor.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, globallashuv kontekstida yoshlar ma'naviyatini asrab-avaylash va boyitib borish jamiyatning ustuvor vazifasiga

¹² Thakor, Kumari & Pavankumar, Dr. (2025). An Analysis of Teacher Job Satisfaction: Role of Salary, Workload, Facilities, Recognition, and Support. International Journal of Scientific Research in Science and Technology. 12. 466-474. 10.32628/IJSRST251312.

aylanishi zarur. Yuqoridagi ilmiy tahlillar va takliflar shuni ko'rsatadiki, tizimli va hamjihatlikda amalga oshiriladigan tarbiyaviy chora-tadbirlar orqaligina yoshlar ongini zararli ta'sirlardan himoya qilish va ularning barkamol avlod bo'lib kamol

topishini ta'minlash mumkin. Yoshlar – kelajagimiz bunyodkorlari – ularning ma'naviy dunyosini yuksak parvarishlash esa yangi O'zbekiston taraqqiyotining garovi ekanini unutmashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madraximov J. (2024). Globallashuv jarayonlarining yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sirining asosiy yo'nalishlari va ularning xususiyatlari. – Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари (Actual Problems of Humanities and Social Sciences), 2024, №4(S/5).
2. O'zbekiston yoshlari: yangi imkoniyatlar va istiqbollari yo'lida. – Yuz.uz sayti, 19.02.2025.
3. Yoshlar uchun tahdid omillari: tahliliy ma'lumotnoma. – Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi. (Prezident videoselektor yig'ilishidagi nutq, 15.06.2017) – Kun.uz xabari.
5. O'zbekistonda o'z uyida internetdan foydalanayotgan katta yoshdagilar ulushi oshdi. – Daryo.uz yangiliklar sayti, 16.04.2024.
6. Арсланов, З. 2024. Совершенствование системы работы с молодежью: на основе международного опыта. Общество и инновации. 5, 4/S (апр. 2024), 248–256. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp248-256>.
7. Arslonov, Z. (2025). COOPERATION BETWEEN STATE AND NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN IMPLEMENTING STATE YOUTH POLICY. Oriental Journal of Social Sciences, 5(04), 32–39. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-05-04-05>
8. Niazi S (2024) Relationship between teachers' professional identity and career satisfaction among college teachers: role of career calling. Front. Psychol. 15:1348217. doi: 10.3389/fpsyg.2024.1348217
9. Perrachione, B. A., Rosser, V. J., and Petersen, G. J. (2008). Why do they stay? Elementary Teachers' Perceptions of Job Satisfaction and Retention. Prof. Educ. 32:n2
10. Sun, B.; Zhu, F.; Lin, S.; Sun, J.; Wu, Y.; Xiao, W. How Is Professional Identity Associated with Teacher Career Satisfaction? A Cross-Sectional Design to Test the Multiple Mediating Roles of Psychological Empowerment and Work Engagement. Int. J. Environ. Res. Public Health 2022, 19, 9009. <https://doi.org/10.3390/ijerph19159009>
11. Thakor, Kumari & Pavankumar, Dr. (2025). An Analysis of Teacher Job Satisfaction: Role of Salary, Workload, Facilities, Recognition, and Support. International Journal of Scientific Research in Science and Technology. 12. 466-474. 10.32628/IJSRST251312.
12. Wong, C. E., and Liu, W. C. (2024). Evaluating the teacher professional identity of student teachers: development and validation of the teacher professional identity scale. J. Educ. 204, 131-144. doi: 10.1177/0022057422110137
13. Wu, Jinsun & Ghayas, Saba & Aziz, Aiman & Adil, Adnan & Niazi, Sadia. (2024). Relationship between teachers' professional identity and career satisfaction among college teachers: role of career calling. Frontiers in Psychology. 15. 348217. 10.3389/fpsyg.2024.1348217.

Аннотация: В статье проанализированы изменения и проблемы в духовности молодежи под влиянием процессов глобализации. Освещаются положительные и отрицательные эффекты глобальных социально-культурных процессов, таких как цифровая среда и миграция, на молодежь. На примере государственной молодежной политики исследуются меры по укреплению духовности молодежи и предлагаются пути решения существующих проблем. В заключении даны практические рекомендации по укреплению воспитания молодежи и повышению ее идеологического иммунитета.

Ключевые слова: глобализация; социально-культурные процессы; духовность молодежи; цифровая среда; миграция; информационные атаки; семейные ценности; молодежная политика; идеологическая устойчивость.

Annotation: This article analyzes the changes and issues in the spirituality of youth under the influence of globalization. The positive and negative effects of global socio-cultural processes such as the digital environment and migration on youth are highlighted. The article examines measures aimed at strengthening the spirituality of youth through the example of state youth policy and proposes solutions to existing problems. In conclusion, practical recommendations are given to reinforce youth upbringing and enhance their ideological immunity.

Keywords: globalization; socio-cultural processes; youth spirituality; digital environment; migration; information attacks; family values; youth policy; ideological stability.

YANGI O‘ZBEKISTONDA SAMARADOR DAVLAT BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY SIYOSATNING AHAMIYATI

Azamatdin UMATOV,

*Nukus davlat pedagogika instituti, Milliy g‘oya,
manaviyat asoslari va xuquq ta’limi kafedrası stajor
o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishda ijtimoiy siyosatning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va uni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy talablar asosida takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, davlat, siyosiy tizim, modernizatsiya, ma’naviyat, samarador davlat boshqaruv, strategiy, taraqqiyot.

Kirish (Introduction). Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va uni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy talablar asosida takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Ayniqsa, global raqobat va texnologiyalar shiddati sharoitida davlat apparatlari samarali, tezkor va ochiq bo‘lishi talab etilmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “davlat boshqaruvi tizimini isloh qilmasdan turib, yangi O‘zbekistonni barpo etib bo‘lmaydi”[1]. Shu sababli 2017 yildan boshlab mamlakatimizda ma’muriy islohotlar, raqamli boshqaruvni joriy etish, fuqarolar bilan ochiq muloqot tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha izchil choralar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning nazariy-metodologik asoslari siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar o‘zaro ta’sirining murakkab tizimini anglashga tayanadi. Ijtimoiy siyosatning me’yoriy-huquqiy bazasi davlat boshqaruvining funksional samaradorligini ta’minlovchi asosiy poydevor bo‘lib, uning zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishi nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarning yangilanishini, balki siyosiy institutlarning tashkiliy va funksional imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi. Mazkur jarayonda konstitutsiyaviy islohotlar, sektorlararo normativ muvofiqlashtirish va xalqaro huquqiy standartlarga integratsiya siyosiy tizimning ochiqligi, barqarorligi

va legitimligini oshirishning strategik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi davlat boshqaruvini samaradorligini oshirishda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning konseptual asosini yaratadi. Strategik hujjatlarda belgilangan islohotlar vektorlari siyosiy institutlarning funksional salohiyatini kuchaytirish, boshqaruv jarayonlarini demokratiklashtirish va texnologik transformatsiya orqali modernizatsiyalashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda siyosiy institutlar nafaqat normativ-huquqiy ijroni ta’minlovchi organlar sifatida, balki innovatsion boshqaruvning tashabbuskor subyektlari sifatida faoliyat yuritadi. Jarayonlarning institutsional uyg‘unlashuvi, texnologik moslashuvchanlik va mafkuraviy barqarorlik O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish modelini shakllantiruvchi uch asosiy tayanch ustun sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, samarador boshqaruv tizimiga erishish mamlakatning siyosiy tizimini global boshqaruv standartlari bilan uyg‘unlashtirish, lekin milliy identitet va siyosiy suverenitetni saqlab qolish bilan uzviy bog‘liqdir.

Yangi O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirish jarayoni ijtimoiy siyosatning me’yoriy-huquqiy asoslarini chuqur tahlil etish va ularni izchil takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

strategiyasi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash mexanizmlari hamda davlatning boshqaruv institutlarini modernizatsiya qilish konsepsiyasiga asoslanadi.

Davlat boshqaruvining samaradorligi bir tomondan institutsional-huquqiy mexanizmlarning funksional uyg'unligiga, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy siyosatning normativ-huquqiy bazasi orqali belgilangan maqsad va vazifalarni aniq va o'z vaqtida amalga oshirishga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va strategik dasturlar ijtimoiy sohada huquqiy tartibga solishning yangicha yondashuvlarini joriy etib, aholining turli qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy himoya, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosatning normativ-huquqiy asoslari davlatning demokratik tamoyillarga asoslangan ijtimoiy majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi va shu bilan birga, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatlovchi hujjatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Bu asoslar nafaqat milliy qonunchilikning tizimlashtirilgan korpusi, balki xalqaro huquq normalarini milliy tizimga inkorporatsiya qilish orqali ham mustahkamlanadi. Xususan, ijtimoiy siyosat sohasidagi xalqaro standartlar, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari hamda ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) konvensiyalari milliy normativ bazani takomillashtirishda konseptual mezon vazifasini bajaradi. Shu tariqa, normativ-huquqiy asoslar ijtimoiy siyosatni nafaqat ichki ehtiyojlar, balki global tendensiyalar va majburiyatlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muvaffaqiyati ijtimoiy siyosatlardagi huquqiy mexanizmlarning izchilligi, shaffofligi va samaradorligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda boshqaruv tizimining institutsional qayta tashkil etilishi, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, davlat xizmatlarini aholiga tezkor va sifatli yetkazish imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Me'yoriy-huquqiy bazaning muntazam ravishda yangilanib borilishi esa ijtimoiy siyosatning dinamikligini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga tezkor moslasha olish qobiliyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy siyosatni huquqiy jihatdan takomillashtirish aholining ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi rolini kengaytirish hamda ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvi va

ijtimoiy siyosatning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayon bo'lib, u mamlakatning demokratik modernizatsiya jarayonida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish va fuqarolarning hayot sifatini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishda ijtimoiy siyosatning me'yoriy-huquqiy asoslari, ayniqsa siyosiy institutlarning funksional uzviyligi, siyosiy jarayonlarning huquqiy legitimligi hamda texnologiyalar orqali boshqaruvning ochiqligi bilan bevosita bog'liq. Bugungi davrda ijtimoiy siyosat faqat ijtimoiy himoya mexanizmi emas, balki davlatning fuqarolar bilan uzviy muloqoti, ularning huquqiy va iqtisodiy ehtiyojlariga tezkor javob bera oladigan institutlar tizimi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lga o'tgan bir paytda, ushbu yo'nalishlar aniq normativ-huquqiy asoslar orqali siyosiy boshqaruvning sivilizatsion darajasini belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ijtimoiy siyosat davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi bo'lishi shart. Uning samaradorligi esa inson manfaatlarini bilan bog'liq amaliy mexanizmlarda namoyon bo'ladi"[2]. Prezidentimizning bu fikri ijtimoiy siyosatni nazariy g'oya yoki populistik bayonot emas, balki aniq me'yoriy-huquqiy asoslar bilan ta'minlangan institutlashtirilgan amaliyot sifatida talqin qilishga undaydi. Bunda "inson qadri" mezonini davlat siyosatining funksional va me'yoriy indikatoriga aylantiradi. Demak, ijtimoiy siyosatni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar faqat reglament emas, balki siyosiy axloq va adolat mezonidir.

Bu haqda o'zbek siyosatshunosi M.Safarov quyidagi fikrni ilgari suradi: "Davlat boshqaruvida ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslarini takomillashtirish degani - bu normativ hujjatlarni ko'paytirish emas, balki ulardagi g'oyaviy aniqlik, ijro mexanizmlarining izchilligi va javobgarlik tizimining ishlashiga erishishdir"[3]. Ushbu fikr ayniqsa zamonaviy siyosiy texnologiyalar va byurokratiyani minimallashtirish kontekstida dolzarb hisoblanadi. Me'yoriy huquqiy asoslar samarali bo'lishi uchun ular xalq bilan davlat o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlashi, byurokratik to'siqlarni kamaytirishi va har bir qaror ustidan ijtimoiy nazoratni ta'minlashi lozim.

Fransiyalik siyosiy nazariyotchi P. Rozanvallon o'zining bir asarida shunday yozadi: "Samarador boshqaruv, ayniqsa demokratik davlatlarda, normativ-huquqiy barqarorlik bilan birga mosla-

shuvchanlik va javobgarlikni birlashtira olgan tizimdir. Bu esa fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini kafolatlaydi"[4]. Rozanvallonning ushbu yondashuvi Yangi O'zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki huquqiy asoslarning mustahkamligi, lekin shu bilan birga ularning zamon talabi bilan uyg'unligidagi uyg'unlik boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy mezondir. Bugungi huquqiy islohotlar aynan mana shu transformativ holatni - ya'ni qat'iylik bilan fleksibilitetni uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Texnologik modernizatsiya kontekstida AQSHlik siyosiy texnolog A. Kingning fikri ham ahamiyatlidir: "Raqamli davrda siyosiy boshqaruv huquqiy infratuzilmaning texnologik integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Har bir normativ hujjat fuqarolarning raqamli huquqiy ongiga mos holda loyihalaniishi kerak"[5]. King ta'kidlaganidek, zamonaviy siyosiy institutlar faqat normativlik emas, balki raqamli yondashuvni ham o'zlashtirishi lozim. Yangi O'zbekistonda e-hukumat, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal", ijtimoiy so'rov platformalari orqali amalga oshirilayotgan huquqiy tizimning raqamli rekonstruksiyasi bu fikrning amaliy tasdig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida belgilangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ijtimoiy siyosat va davlat boshqaruvi sohasidagi asosiy normativ yo'nalishlar belgilab berilgan. Unda aytiladiki: "Ijtimoiy soha va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari huquqiy mexanizmlar bilan aniq mustahkamlanadi"[6]. Bu huquqiy platforma siyosiy institutlar, vazirlik va idoralar faoliyatini qayta dizaynlash, jarayonlarni ochiqlikka asoslangan tarzda tashkil etish, eng muhimi, fuqarolarning ishtirokini ta'minlovchi muvozanatli mexanizmlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish – bu nafaqat institutsional islohotlar, balki siyosiy tizimning funksional barqarorligiga xizmat qiluvchi mafkuraviy, huquqiy va texnologik sintezni tashkil etuvchi muhim siyosiy jarayondir. Rivojlanayotgan O'zbekiston siyosiy tizimi uchun bu holat jamiyatdagi adolatga asoslangan boshqaruvni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini faollashtirish va davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Aynan shuning uchun ijtimoiy siyosat sohasida meyoriy-huquqiy hujjatlar faqat amaldagi qonunlar emas, balki zamonaviy siyosiy texnologiyalar orqali qayta talqin qilinayotgan davlat-vatandosh muloqotining ifodasi sifatida qaralmoqda.

O'zbek siyosatshunosi A.Jo'rayevning fikricha, "ijtimoiy siyosatning huquqiy asosi – bu inson huquqlarini himoya qilish va ularni amalda ta'minlashni kafolatlovchi meyorlar tizimi bo'lib, u bevosita davlatning ijtimoiy tabiatini ifodalaydi"[7]. Bu fikr zamirida shunday muhim ilmiy pozitsiya yotadiki, har qanday siyosiy institut va huquqiy mexanizm inson manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Shu jihatdan Yangi O'zbekiston davridagi ijtimoiy siyosatga oid huquqiy hujjatlar, masalan, "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi qonun, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlar aynan insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan.

Bu kontekstdan kelib chiqib, A.Xudoyberganov quyidagi fikrni ilgari suradi: "Davlat boshqaruvi tizimidagi meyoriy-huquqiy asoslar raqamli texnologiyalar, elektron hukumat va axborot tizimlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilsa, ijtimoiy siyosatning operativligi va samaradorligi oshadi"[8]. Ushbu nuqtai nazar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda meyoriy hujjatlar faqat statik norma emas, balki texnologik ekotizimda harakatlanuvchi huquqiy dizayn sifatida tasavvur qilinmoqda. Masalan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "my.gov.uz", "PMT" tizimlari orqali fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning raqamli modeli ijtimoiy siyosatga oid huquqiy hujjatlarning texnologik kontekstda ishlashini ta'minlamoqda.

Xalqaro ekspert L.Osvold shunday fikr bildiradi: "Ijtimoiy siyosatga oid normativ-huquqiy hujjatlarning muvaffaqiyati ularning institutlararo muvofiqlashtirish darajasi, siyosiy irodaga asoslanganligi va ochiq boshqaruv prinsiplariga mos kelishiga bog'liq"[9]. Osvold fikriga tayanib aytilish mumkinki, Yangi O'zbekistonda siyosiy institutlar o'rtasidagi koordinatorlik, masalan, Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamkorligida ishlab chiqilayotgan dasturlar va qonunlar ushbu mezonlarga javob bera boshlagan. Ayniqsa, "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi – 2030" kabi hujjatlar ijtimoiy siyosat va iqtisodiy boshqaruvning huquqiy uyg'unlashuvini anglatadi.

Rossiyalik siyosatshunos V. Kostyukovning fikricha, "Siyosiy jarayonlarda huquqiy asoslar faqat qonunchilik sifatida emas, balki siyosiy institutlarning o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini muvofiqlashtiruvchi kommunikativ mexanizmdir"[10]. Bu yondashuv ijtimoiy siyosatdagi meyoriy-huquqiy hujjatlar siyosiy texnologiyalar orqali yangi funksional fazoga o'tayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbekistonda "Muloqot va eshitish" siyosiy modeli, "Xalq qabulxonalari" instituti, "Elektron parlament" tizimi bu normativ

hujjatlarning faqat yuridik emas, balki kommunikativ omil sifatida ishlashini ta'minlaydi.

Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirish jarayoni siyosiy institutlarning institutsional uyg'unligi, huquqiy mexanizmlarning izchilligi va texnologik modernizatsiyaning uzviyligi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa ijtimoiy siyosat sohasidagi meyoriy-huquqiy asoslarning takomillashuvi davlat boshqaruvining funksional samarasini oshirishda muhim g'oyaviy va institutsional poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tenglik, adolat va himoya siyosatining zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilganligi siyosiy jarayonlar samaradorligining asosiy ko'rsatkichiga aylanmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Taniqli siyosatshunos T.Mahkamov o'z tadqiqotida quyidagicha ta'kidlaydi: "Yangi O'zbekiston davrida ijtimoiy siyosatga oid normativ hujjatlar faqat tartibga solish vositasi emas, balki boshqaruvdagi axloqiy mezonlarni mustahkamlovchi siyosiy-konstruktiv hujjatlar sifatida namoyon bo'lmoqda"[11]. Ushbu fikr ijtimoiy siyosatning siyosiy institutlar faoliyatida markaziy o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Qolaversa, siyosiy hujjatlar – bu faqat qonun emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar va siyosiy ong o'rtasidagi dialektik aloqani ifodalovchi zamonaviy siyosiy texnologiyadir.

Tadqiqotchi I.Kenjayeov o'zining huquqiy-falsafiy tahlilida shunday xulosa qiladi: "Meyoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirish – bu siyosiy institutlarning yangilanishi, huquq ustuvorligiga asoslangan ijtimoiy tartibotni ta'minlashning poydevori hisoblanadi"[12]. Uning fikri davlat boshqaruvini samaradorligining asosiy sharti sifatida huquqiy yangilanish va siyosiy barqarorlikning integratsiyasini ilgari suradi. Bugungi sharoitda qonun hujjatlarini nafaqat dolzarb, balki texnologik platformalar asosida interaktiv, ochiq va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan tarzda tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro ekspert H.Batley ijtimoiy boshqaruv siyosatining texnologik kontekstda rivojlanishini quyidagicha izohlaydi: "Zamonaviy davlatlar samaradorligini belgilovchi asosiy omil bu – ijtimoiy siyosatning raqamli boshqaruv tizimlari bilan uyg'unlashgan huquqiy asosga tayanishidir"[13]. Uning ushbu fikri Yangi O'zbekistonda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Davlat xizmatlari agentligi" kabi institutsional va texnologik islohotlar orqali amaliy tasdig'ini topmoqda. Raqamli texnologiyalar siyosiy jarayonlarda ijtimoiy adolatning funksional omiliga aylangan.

Tadqiqotchi A.Mamarasulov esa o'z asarida quyidagi mulohazani bildiradi: "Siyosiy institutlar faoliyatini samarali yuritishda ijtimoiy siyosatga oid normativ hujjatlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi qonunchilikni dinamik boshqaruv vositasiga aylantiradi"[14]. Uning bu pozitsiyasi ijtimoiy siyosatdagi huquqiy transformatsiyaning faqat ma'muriy emas, balki siyosiy kommunikatsiyani chuqurlashtiruvchi, davlatning legitimligini mustahkamlovchi vosita ekanligini anglatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Yangi O'zbekistonda samarador davlat boshqaruvini shakllantirishda ijtimoiy siyosatning meyoriy-huquqiy asoslari tobora siyosiy modernizatsiya va institutsional transformatsiyaning ajralmas bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur asoslar nafaqat huquqiy meyorlar to'plami, balki siyosiy institutlarning funksional mexanizmi, boshqaruv texnologiyalarining barqarorlashtiruvchi omili sifatida ham qaraladi. Davlat boshqaruvining bugungi modeli – bu texnologik yondashuvlar, siyosiy raqobat va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan kompleks tizimdir.

Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruv tizimini samarali rivojlantirish masalasi bevosita ijtimoiy siyosatning meyoriy-huquqiy asoslari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon siyosiy institutlar, boshqaruv jarayonlari va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslari davlat tomonidan belgilangan siyosiy irodani institutsional tizimlar orqali amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi. Shu bois, Yangi O'zbekiston sharoitida qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat nafaqat ijtimoiy soha islohotlarining qonuniy poydevorini belgilaydi, balki davlatning fuqaroga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyilini ham ifoda etadi. Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonning siyosiy modernizatsiyasi ijtimoiy siyosatning meyoriy-huquqiy asoslarini tubdan yangilash, ularni siyosiy institutlar faoliyati va texnologik infratuzilma bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati siyosiy qarorlarning huquqiy poydevoriga, ijro intizomiga, shaffoflikka va texnologik yondashuvlarning huquqiy asoslashiga bog'liqdir. Ijtimoiy siyosat endilikda faqat ijtimoiy himoya vositasi emas, balki davlatni samarali boshqarishga xizmat qiluvchi normativ siyosiy texnologiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat va xalqparvar davlat. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 184 b.
3. Safarov M. Davlat boshqaruvining huquqiy transformatsiyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. – 77 b.
4. Rosanvallon P. Demokratiya legitimligi. – Moskva: Vysshayashkola, 2010. – 63 b.
5. King A. Running Scared: Why America's Politicians Campaign Too Much and Govern Too Little. – New York: Free Press, 1997. – 145 b.
6. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (PF-60). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy materiali, 2022. – 31 b.
7. Jo'rayev A. Ijtimoiy siyosat va huquqiy davlat konsepsiyasi. – Toshkent: O'zR IIV AN, 2019. – 102 b.
8. Xudoyberganov A. Raqamli davlat va boshqaruv tizimining huquqiy transformatsiyasi. – Toshkent: TDYU, 2022. – 88 b.
9. Oswald L. Governance through Social Policy. – Berlin: Springer, 2018. – 94 b.
10. Kostyukov V. Pravovaya kommunikatsiya v sisteme gosudarstvennogo upravleniya. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 117 b.
11. Mahkamov T. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar transformatsiyasi. – Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2021. – 64 b.
12. Kenjayev I. Huquqiy siyosat va ijtimoiy barqarorlik. – Toshkent: Adolat, 2022. – 101 b.
13. Batley H. Social Policy and E-Governance. – London: Routledge, 2020. – 119 b.
14. Mamarasulov A. Yangi davrda siyosiy institutlar modernizatsiyasi. – Toshkent: TDYU, 2023. – 83 b.

Аннотация: В данной статье научно проанализировано значение социальной политики в развитии эффективного государственного управления в Новом Узбекистане. Также в статье научно освещается, что текущий этап развития государственности Нового Узбекистана определяет повышение эффективности государственного управления и его совершенствование на основе современных социально-политических требований в качестве приоритетной задачи.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, государство, политическая система, модернизация, духовность, эффективное государственное управление, стратегия, развитие.

Annotation: This article scientifically analyzes the significance of social policy in the development of effective public administration in New Uzbekistan. The article also scientifically illuminates that the current stage in the development of New Uzbekistan's statehood defines increasing the effectiveness of public administration and improving it based on modern socio-political requirements as a priority task.

Keywords: New Uzbekistan, state, political system, modernization, spirituality, effective state governance, strategy, development.

OLIV TA'LIMDA DAVLAT SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Timur NURMAMATOV,

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi
tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. 2016-2025 yillarda oliy ta'lim sohasida ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi, qonunchilikda tegishli o'zgarishlar amalga oshirildi. Barchasi oliy ta'limning yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, qonun, Konstitutsiya, akademik va moliyaviy mustaqillik, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, pedagog, moddiy-texnik baza, o'quv binolari.

Kirish. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi shaklan va mazmunan yangilandi. Tarix taqqoslar orqali o'zgarishlar, islohotlar va yangilanishlarni namoyon etadi. Shuning uchun 2016/17 o'quv yili bilan 2025/26 o'quv yilidagi ko'rsatkichlarni qiyosiy taqqoslasak oliy ta'lim sohasidagi miqdor va sifat jihatdan rivojlanishning sur'ati paydo bo'ladi. Haqiqatda ham oliy ta'lim tizimidagi yangilanishlar oldinga qo'yilgan maqsadlar bilan hamohanglikda ro'y bermoqda. Hurmatli Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan ta'limga bo'lgan e'tibor tufayli oliy ta'lim sohasi katta islohotlar yo'lini bosib o'tdi. 2016-2025 yillar oliy ta'lim sohasida tub o'zgarishlar davri sifatida namoyon bo'ldi. Bunda eng asosiy e'tibor o'sib kelayotgan yosh avlodga oliy ta'lim olish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish va ta'lim sifatini oshirishga qaratildi.

Oliy ta'limni isloh qilishda sohani rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish va ustuvor yo'nalishlarni belgilab berish zarur edi. Shundan kelib chiqib, bevosita oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan o'nlab qonunosti hujjatlari qabul qilindi. 2017-2023 yillar davomida 1 ta Qonun, 19 ta Farmon, 136 ta Qaror, 1 ta Farmoyish, 289 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 87 ta idoraviy hujjatlar qabul qilingani davlat tomonidan oliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Mana shu normativ-huquqiy hujjatlar oliy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlab rivojlanish va o'zgarishlarga muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Sohadagi islohotlarga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bazasini alohida jadvalda ko'rish mumkin (1.1.1-jadval).

Yillar	O'zbekiston Respublikasi qonuni	Prezident Farmoni	Prezident qarori	Prezident farmoyishi	Vazirlar Mahkamasi-ning qarori	Idoraviy normativ huquqiy hujjat
2017		5	26	3	34	5
2018		3	28		49	9
2019	1	5	22		63	5
2020		2	25		43	3
2021		2	22		48	8
2022		4	21	1	23	7
2023		3	6	1	11	
2024		3	8	1	17	
2025		1	7		6	5

Islahotlar va Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tegishli qonunchilik normalarini takomillashtirishni va shu orqali yangi davr sharoitida imkoniyatlarni kengaytirishni taqozo etdi. Shu ma'noda 2023 yil – mamlakatimiz tarixida yana bir yangi sahifani ochdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning roziligi – Referendum orqali yangi tahrirda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Asosiy Qonunimizdagi o'zgarishlar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida aks etdi. Shu singari oliy ta'limda ham. Eng muhimi ilk bora oliy ta'limning huquqiy maqomi Bosh Qonunda belgilab qo'yildi[2]. Davlat ta'lim tashkilotlari bilan birga xususiy ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam huquqiy mexanizm asosi paydo bo'ldi.

Adabiyotlar va metodologik tahlil. Ilk bora O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oliy ta'lim tashkilotlariga “qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi”[3] belgilandi (51-modda). Buning ahamiyati shundaki, jahonda oliy ta'limni rivojlanishi bevosita oliy ta'lim tashkilotlarining akademik va moliyaviy mustaqilligi bilan ham bog'liq. Oliy ta'lim tashkilotlariga bunday erkinlikning berilishi akademik faoliyat va o'zini o'zi boshqarishda talab va taklifdan kelib chiqib, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratdi.

Shundan kelib chiqib, ya'ni oliy ta'lim tashkilotlarini isloh qilish borasidagi bunday qadam qo'yilishidan avval 2021 yil 24 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-60-sonli “Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi[5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-61-sonli “Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi[5] qarorlari imzolangan edi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar aytib o'tilganidek, konstitutsiyaviy islohatlarga asos bo'lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, 2023 yil 1 maydan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'qituvchining huquqiy maqomi e'tirof etildi. Qat'iy norma belgilab qo'yildi. Ya'ni: “Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”[6] (52-modda). Chunki jamiyatda o'qituvchiga bo'lgan munosabat o'zgarishi kerak. 1991-2016 yillarda o'qituvchilarning maoshi ularning jamiyatdagi obro'-e'tiboriga ham ta'sir etgan edi. O'qituvchilik ko'proq ayollarning kasbiga aylanib qolgandi. Shundan kelib chiqib, o'qituvchilarning mavqeini oshirish borasida sa'y-harakatlar huquqiy normalarda aks ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi belgilab qo'yilgan bunday normadan kelib chiqib, O'zbekiston

Respublikasining 2024 yil 1 fevralda qabul qilingan va kuchga kirgan O'RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni[7] alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Qonunda pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, etik qoidalari, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, attestatsiyadan o'tkazish, ularni ijtimoiy himoyalash, pedagog haqidagi qonunchilik normalarini buzganlik uchun javobgarlik normalari belgilandi. To'g'ri, o'qituvchilarning maqomini muayyan hujjat yoki topshiriq bilan hal etib bo'lmazligi aniq, ammo ularning huquqlariga daxl qilinganda himoya choralari kuchaytirilishi muhimdir. Eng muhimi, odamlarning o'qituvchi va murabbiylarga nisbatan munosabati o'zgarishi, davlat tomonidan mazkur qatlamga har jihatdan g'amxo'rlikning kuchaytirilishi ta'lim muassasalarida ishlashga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Bunday o'zgarishlarga so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni belgilab bergan normativ-huquqiy hujjatlar muhim asos bo'lib xizmat qildi. Bu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni[8] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ta'kidlash kerak. Bunda oliy ta'limni isloh qilishning barcha yo'nalishlari ko'rsatib berildi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ustuvor sohalarning belgilanishi bilan birgalikda oliy ta'limning 2030 yilgacha rivojlantirishni maqsadli ko'rsatkichlari ham belgilandi. Jumladan, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi; nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida; xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida o'qitishni tashkil qilish (qo'shma ta'lim dasturlari bundan mustasno); muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi; bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilaridan magistratura mutaxassisliklariga qabul qilingan talabalar; xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar ulushi [9] va boshqa yo'nalishlar bo'yicha aniq raqamlar ko'rsatildi.

E'tiborli tomoni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning strategiyasini aniq belgilab berdi. Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari va “Yo'l xaritasi” asosida oliy ta'limda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Masalan, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi maqsadli ko'rsatkichlarda 2025 yilda 35 foiz ko'rsatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilning o'zidayoq 43 foizdan oshdi. Yoki nodavlat oliy ta'lim

muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil etilgan OTTLar 2025 yilda 28 ta ko'rsatilgan bo'lsa, 2025 yil holatiga ularning soni 71 taga yetdi. Bunday o'lganda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohani rivojlantirishning muhim huquqiy-strategik mexnizmi bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi Konsepsiya tasdiqlanishi bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etildi. Kengash tomonidan tayyorlangan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi, ular Kengashga vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama ko'mak beradilar, so'ralgan zarur ma'lumotlarni taqdim etib boradilar[10].

Jamoatchilik kengashi haqida gap ketganda 2023 yilda tashkil etilgan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Ta'lim-fan kengashi faoliyatini aytib o'tish lozim. Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari oliy ta'lim muassasalarida onlayn ovoz berish orqali shakllantirildi. Nomzodlar saylovoldi targ'ibotni amalga oshirdi. Respublika bo'yicha onlayn ovoz berish jarayoni o'tkazildi. Eng yuqori ovoz olgan 15 nafar nomzod Ta'lim-fan kengashi a'zolari sifatida ro'yxatga olindi. Saylangan a'zolarining turli hududlardan ekanligi o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarini mamlakat miqyosida qamrab olish, ular faoliyatini o'rganish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mavjud muammolarning yechimlari bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga asosli takliflarni kiritib borishga sharoit yaratdi [11].

Ta'lim-fan kengashi oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini tashkil etilishi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni boshladi. 2023/2024-o'quv yilidan boshlab samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish uchun OTTLar faoliyatini o'rgana boshladi, o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha o'rganishlarida oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishda olib borgan ishlari tahlil etdi va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar berib borish amaliyotiga keng urg'u berdi[12].

2022 yilning oxirida O'zbekistonda boshlangan ma'muriy islohotlar oliy ta'lim tizimi tashkiliy boshqaruv jarayonlariga ta'sir qildi. Shundan kelib

chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyuldagi PQ-200-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boradigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nomi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga o'zgartirildi[12].

Ahamiyatli tomoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ushbu sohada davlat siyosatini yuritadigan vakolatli vazirlik sifatida belgilab qo'yildi. Vazirlik huzuridagi institut va markazlarning faoliyati takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 8 avgustdagi 489-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qarori[14] bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Vazirlik tarkibidagi 60 ta oliy ta'lim tashkiloti ro'yxati tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash buyicha ixtisoslik yunalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi[15].

Muhokama va natija.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 8 oktyabrdagi farmoyishi asosida tuzilgan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatni o'rganish natijalari shuni ko'rsatmokedaki, qator oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyat hanuz past darajada qolmokda, ta'lim jarayonining o'quv-metodik va axborot ta'minoti zamonaviy talablarga mos emas, moddiy-texnika bazasi tizimli ravishda yangilanishga muhtoj. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoniga ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasidagi ishlar talab darajasida olib borilmayapti[16].

Shundan kelib chiqib, kompleks choralar

belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning samarali yechimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jixozlash maqsadida Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi[16].

Dasturga muvofiq, 2017 — 2021 yillarda 48 ta oliy ta'lim muassasasi jami 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muxandislik infratuzilmalari ob'ektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta'lim muassasasi 400 ta o'quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta'lim muassasasi barcha oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi[16].

Mazkur dasturda, asosan, mamlakatimizning har bir oliy ta'lim muassasasi bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilganiga uta muxim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda. Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital tamirlashga, 500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunalarini, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga muljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini

tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi[16].

O'zbekistonda mamlakatning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash masalalarini tubdan o'zgartirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini korxonalarining ishlab chiqarish munosabatlariga va istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, bitiruvchilarni mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini oliy ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash jarayoniga keng jalb etish, ularning ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Bosh vazirning o'rinbosarlari — kompleks rahbarlari, mutasaddi rahbarlar tarmoq(soha)lar bo'yicha tegishliligiga ko'ra oliy ta'lim muassasalariga birlashtirildi[17].

Xulosa.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy asoslari ularning huquqiy maqomi, tashkil etish tartibi, faoliyat yo'nalishlari va davlat tomonidan boshqarilishi bilan bog'liq qonunchilik normalarini o'z ichiga oladi. Ularni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Oliy va o'rta maxsus ta'lim to'g'risida"gi Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalari davlat, nodavlat va xorijiy ta'lim muassasalari sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ular o'quv-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va madaniy-ma'rifiy vazifalarni bajaradi. Muassasalar mustaqil ravishda faoliyat yuritadi, lekin tegishli vazirliklar va davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotnomasi. 13.05.2025 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 1 mayda kuchga kirgan. <https://lex.uz/docs/6445145>.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 1 mayda kuchga kirgan. <https://lex.uz/docs/6445145>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-60-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5793261>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5793251?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>.

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 1 mayda kuchga kirgan. <https://lex.uz/docs/6445145>.
7. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagi O'RQ-901-sonli "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/6786401>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.
9. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari. <https://lex.uz/docs/4545884>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.
11. Axmedov T. Ijroiya hokimiyati huzuridagi jamoatchilik kengashlari: milliy va xorijiy tajribalar. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2024. –B. 172.
12. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ta'lim-fan jamoatchilik kengashi ma'lumotlari. 29.02.2024 yil.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyuldagi PQ-200-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/6518515>.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 8 avgustdagi 489-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/7054560>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi qaroriga sharh // Xalq so'zi. – 2017. – 21-aprel. № 79 (6773).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi qaroriga sharh // Xalq so'zi. – 2017. – 21-aprel. № 79 (6773).
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga sharh //Xalq so'zi. – 2017. – 28-iyul. № 148 (6842).

Abstract: This article analyzes the regulatory legal acts adopted for the development of higher education in Uzbekistan. In 2016-2025, many decrees and resolutions were adopted in the field of higher education, and relevant changes were made to the legislation. All of them served as a solid legal basis for bringing higher education to a new level.

Keywords: Higher education, law, Constitution, academic and financial independence, non-governmental higher education organizations, pedagogical, material and technical base, educational buildings.

Аннотация: В статье анализируются нормативно-правовые акты, принятые для развития высшего образования в Узбекистане. В 2016–2025 годах в сфере высшего образования было принято множество указов и постановлений, а также внесены соответствующие изменения в законодательство. Все это послужило прочной правовой основой для вывода высшего образования на новый уровень.

Ключевые слова: Высшее образование, закон, Конституция, академическая и финансовая самостоятельность, негосударственные высшие образовательные организации, педагогическая и материально-техническая база, учебные корпуса.

IJTIMOYIY HAMKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Ilhomjon KAMOLOV,

O'zbekiston Milliy universiteti izlanuvchisi,
O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati
tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika
Kengashi tashkiliy ishlar bo'limi mudiri.

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy hamkorlikning nazariy asoslarini tahlil qiladi. Unda ijtimoiy hamkorlik tushunchasi, uning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy hamkorlikning samaradorligini ta'minlovchi omillar, shu jumladan ijtimoiy institutlar, ishonch va o'zaro manfaatlar tizimi muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kasaba uyushmasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy sheriklik, dialektika, davlat, jamoa shartnomasi.

Kirish (Introduction). Ijtimoiy-siyosiy makonida davom etayotgan o'zgarishlar va iqtisodiy transformatsiya sharoitida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish muammosi ijtimoiy fanlar tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutining rivojlanishi hayotimizning demokratik asoslarini mustahkamlashga, jamiyat va davlat o'rtasida tubdan yangi munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan maqsadlar bilan bog'liq. Rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi huquqiy davlatning o'ziga xos belgisi, demokratik davlatning ajralmas qismidir. Fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etuvchi jamoat birlashmalari bugungi kunda aholining deyarli barcha toifalari manfaatlarini ifodalaydi. Bunday ijtimoiy-siyosiy xilma-xillik sharoitida ushbu institutlarning shakllanishi va rivojlanishi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy sohalaridagi o'zgarishlar turli mamlakatlarda o'z taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan strategik dasturlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish vazifalarini dolzarb ahamiyatga olib chiqmoqda. Mazkur strategik dasturlar barcha mamlakatlarning pirovard maqsadi bo'lgan kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Zero, har bir davlat taraqqiyoti asosini nafaqat kuchli hukumat, iqtisodiy qudrat, harbiy salohiyat va boshqa omillar, balki kuchli fuqarolik jamiyati tizimi va institutlarining qay darajada shakllanganligi bilan ham belgilanadi. Shu bois, mazkur bobda hozirgi davrga qadar fuqarolik jamiyati institutlarining va

davlat organlari bilan ijtimoiy hamkorligi tadqiq etilgan ilmiy nazariyalar, yondashuvlar, amaliy konsepsiyalarning mazmun-mohiyati, taraqqiy etib borayotgan davlatlarda demokratik boshqaruv tizimning metodologik asoslari ochib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy o'ziga xos tamoyillari, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat va aloqadorlikni ta'minlashga qaratilgan vazifalardan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga xos definisalar izoxi siyosiy fanlar nuqtai nazaridan takomillashtiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi qismi (Research Methodology). Ijtimoiy hamkorlikning nazariy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan ushbu maqolani yozishda ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili qismi (Literature review). Faylasuf olim A.O'tamuradovning keltirishicha, ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida birinchilardan bo'lib nemis mutafakkirlari "davlat" va "fuqarolik jamiyati" o'rtasida ham tafovutlar, ham o'zaro bog'liqliklar borligini ta'kidlab, "fuqarolik jamiyati – inson mehnati rohatini topadigan joy", deb e'tirof etishadi [6]. Shu bilan birga, u davlat insonga bunday jamiyat qurish imkoniyatini ochib beradi, degan qarashni ifodalaydi. G.Gegel davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro farqlariga oid qarashlarni berib o'tar ekan, "Huquq falsafasi" nomli asarida xususan, fuqarolik jamiyatini davlat bilan oila o'rtasida joylashgan ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida e'tirof etadi.

Ya'ni, davlat bilan munosabatlari fuqarolik qonunlari bilan tartibga solingan, davlatdan nisbatan mustaqil bo'lgan bir qator shaxslar, ijtimoiy guruhlar va institutlar fuqarolik jamiyatini anglatishini ta'kidlab o'tadi [6].

Shunday qilib, Gegel o'zi ilgari surgan konsepsiyada fuqarolik jamiyatini oiladan keyin, lekin davlatdan ustun qo'ysa-da, cheklangan manfaatlar va munosabatlarni hisobga olgan holda va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida, o'z-o'zini rivojlantirish, umuminsoniy moddiy va ma'naviy tamoyilning timsoli sifatida davlatga ustuvor ahamiyat berdi.

Gegeldan farqli o'laroq amerikalik olim Tomas Peyn insonning tabiiy huquq konsepsiyasiga tayangan holda fuqarolik jamiyati va uning tashkilotlarini davlatga muqobil (qaram-qarshi) hodisa sifatida talqin qiladi. Peyn davlatni siyosiy boshqaruvning minimal mexanizmlari sifatida qo'rib, faqat davlatni o'zini o'zi boshqarish doirasidan tashqarida bo'lgan sohalarida tan olgan holda, fuqarolik jamiyati va uning institutlariga etakchi rol ni beradi.

T.Peyn o'zining "Inson huquqlari" (1791-1792) nomli asarida fuqarolik jamiyati qanchalik mukammal bo'lsa, u o'zini o'zi boshqaradi va ushbu jabhada hukumatga kam imkoniyatlar qoldiradi, deydi [8, 66]. T.Peynga ko'ra, agar tabiiy huquqlar insonga tabiatan xos bo'lsa, fuqarolik inson huquqlari qabila jamiyatidan davlatga o'tish jarayonida odamlar o'z tabiiy huquqlarining bir qismini "umumiy fond"ga o'tkazish natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham u hokimiyat davlatga faqat uni istalgan vaqtda qonuniy ravishda qaytarib olishga qodir fuqarolar roziligi asosida berilishini ta'kidlagani holda, hukumatning mutloq hokimiyat yuritishini istisno qiladi.

T.Peyn fikricha, "hukumat" ideal holatda faqat fuqarolik jamiyatining turli qismlarining o'zaro ta'sirini ta'minlashi kerak. Shuningdek, davlat va jamiyat o'zaro manfaatlar, tartib va uyg'unlikni o'rnatishda birlashishi kerak. Bundan tashqari, T.Peyn erkin va teng huquqli odamlar nima uchun er yuzida tinch va hamkorlikda yashashga intilishi zarurligini tushuntirishga harakat qilib quyidagicha mulohaza yuritadi:

-birinchidan, odamlarning tabiiy ehtiyojlari ularning individual qobiliyatlaridan sezilarli darajada oshadi, ya'ni odamlar o'z ehtiyojlarini qondira olmaydilar va boshqa odamlarning yordamiga muhtojdirlar. Bu ularni o'zaro manfaatlariga asoslangan turli xil almashinuv shakllarini yaratishga undaydi;

-ikkinchidan, birgalikda yashashga bo'lgan tabiiy tuyg'u, o'z navbatida, uni rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladigan bozor manfaatlaridan

kelib chiqadi. "Odamlar erkinlik va baxtga bo'lgan o'z tabiiy huquqlarini fuqarolik jamiyati doirasida amalga oshiradilar, davlat hokimiyati institutlari esa barcha odamlarning xavfsizlik va manfaatlarining qondirilishiga to'sqinlik qilmaydi" [8, 185].

Tahlil va natijalar qismi (Analysis and results). Fuqarolik jamiyati insoniyat tomonidan yaratilgan siyosiy qarashlar tarixi - jamiyat va inson, siyosat va davlat to'g'risidagi nazariy qarashlarga, shuningdek ilk jamoalardan to hozirgi davrgacha bo'lgan jamiyatlar rivojlanishi tajribasi asosida takomillashib bordi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati unsurlarining bundan bir necha minglab yillar oldin kashf etilganligiga e'tibor berilsa, fuqarolik jamiyati insoniyat yaratgan sivilizatsiyalarning eng so'nggi hosilasi ekanligini yanada teranroq anglashga imkoniyat tug'iladi.

Fuqarolik jamiyati haqidagi ta'limotlarning rivojlanish bosqichi uzoq tarihgacha borib taqalib, uning mohiyati esa murakkab va serqirradir. Fuqarolik jamiyati mohiyati haqidagi qarashlarning bir-biridan farq qilishi, birinchidan, uni o'rganishda turlicha metodologik yondashuvlar mavjudligi, ikkinchidan, bu ta'limot insoniyat rivojlanishining qaysi davrida amalga bo'lganligi, ya'ni fuqarolik jamiyatining mazmuni va mohiyatini talqin qilish o'sha vaqtda hukmron bo'lgan g'oyalarga asoslangan holda amalga oshirilganligi bilan bog'liqdir [2, 6]. Xususan, qadimgi Sharq va G'arb allomalari va ular yaratgan ta'limotlarda ideal jamiyatning asoslarini izlashga o'z davri nuqtai nazaridan yondashilib, unga ko'ra, farovon davlat va adolatli jamiyatning asosi favqulotda buyuk hukmdor boshqaruvi, ahloqiy va ma'naviy komillikka intiluvchi inson timsolida yoki qonunlarning barcha narsadan ustun turishi lozimligi to'g'risidagi qarashlarda ifoda etiladi. O'rta asrlarda, xususan, uyg'onish davrigacha G'arb jamiyatlarida "fuqarolik jamiyati"ga e'tibop bir oz susaygan bo'lsa-da, u ozodlikning gumanistik g'oyalari va ularning odamlar ongida tarqalishi bilan yanada boyib bordi. Sharqda esa Yusuf Xoc Hojib, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Nizomulmuluk, Navoiy kabi allomalar etuk jamiyatni shakllantirish yuzasidan bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ulkan ilmiy meros qoldirganlar.

Shu o'rinda alohida e'tirof etish zarurki, Sharq mutafakkirlarining fozil jamiyat va adolatli davlat barpo etishga oid g'oyalari Uyg'onish davri va undan keyingi davrlarda yashab ijod qilgan G'arb allomalarining qarashlariga ham etarlicha ta'sir ko'rcata oldi. G'arbning etakchi olimlari Sharq mutafakkirlari asarlarini o'rganish, ularni Evropa tillariga tarjima qilish asnosida o'zlarining davlat va jamiyatni takomillastirishga doir qarashlarini ancha boyitdilar. Ayniqsa, Yevropa olimlari fuqarolik jamiyati bilan bog'liq nazariyalarni yaratishda

Sharq mutafakkirlarining ilmiy meroslaridan unumli foydalandilar [4, 29].

Davlatdan alohida, xususan, “muxtor” soha sifatida fuqarolik jamiyati kategoriyasi ilmiy muomalaga kiritilishi XVIII asr oxiri - XIX asrlardagi ma’rifatparvarlik davriga to’g’ri keladi. G’arb sivilizatsiyasida muhim burilish vaqti yuzaga kelayotgan ushbu davrga kelib, demokratiya va liberal g’oyalarning rivoji fuqarolik jamiyati fenomenining zamonaviy davrdagi ma’nosini ifoda etadigan tushunchasining shakllanishiga hamda mazkur yo’nalishda dolzarb ilmiy tadqiqotlar olib borishga zamin yaratdi.

Fikrimizcha mumtoz davr olimlari yaratgan g’oya va ta’limotlar fuqarolik jamiyatining yangi konseptlarini paydo bo’lishiga asos bo’ldi. O’tgan XX asrda olimlar fuqarolik jamiyati nazariyasiga yangi komponentlar qo’shib borib, uning davrga xos transformasiyalashuviga ham xizmat qildi. Ayniqsa, zamonaviy nazariyalarda fuqarolik jamiyatini ko’proq institutsional jihatdan o’rganish an’anasi keng tarqaldi.

Taniqli nemis faylasufi va sosiologi, frankfurt maktabi vakili Yu.Xabermas XX asr fuqarolik jamiyati nazariyasini rivojlantirishga fundamental hissa qo’shgan olimlardan sanaladi. Xabermas “fuqarolik jamiyatini rasional diskurs doirasida erishilgan universal konsensus sifatida tasavvur qiladi. Uning davomida har bir ishtirokchi o’z manfaatlarini himoya qilib, uni umumiy tartibga solish standarti bilan birlashtirishga intiladi” [9, 13], – deydi olim. Shuning bilan birga, u fuqarolik jamiyatini shaxs va davlat o’zaro aloqa qiladigan jamoat sohasi sifatida e’tirof etadi.

Xabermas fuqarolik jamiyati “ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan iqtisodiy bo’lmagan nodavlat uyushmalar va birlashmalarni o’z ichiga olishini, jamoat muammolarini idrok etadigan, uni keng ommaga namoyon qilib ijtimoiy-siyosiy darajaga ko’taradigan jamiyatlar, tashkilotlar va harakatlardir” [3, 27], deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, italiyalik mutafakkir XX asr ijtimoiy-siyosiy fanlar kontekstida fuqarolik jamiyati nazariyasining rivojiga o’ziga xos hissa qo’shgan A.Gramshining fikricha “fuqarolik jamiyati inqilob havf solayotgan davlat uchun qal’a vazifasini bajaradi” [1, 19]. Olim davlat singari fuqarolik jamiyati hukmron sinfga o’z kuchini mustahkamlashda xizmat qiladi, deb hisoblaydi. A.Gramshining faqat etuk fuqarolik jamiyatida uning davlat bilan munosabatlari muvozanatli xususiyatga ega bo’lishi haqidagi fikrlari diqqatga sazovor.

G’arb nazariy manbalarida olimlarning fuqarolik jamiyati tarkibiga kiruvchi uyushmalarning ko’ngilli ekanligi borasidagi qarashlarida umumiylik mavjud bo’lib, jumladan, M.Uorren, Sh.Benhob, Dj.Koen,

M.Uolser kabi nazariyotchilar tomonidan fuqarolik jamiyati deganda ko’ngilli uyushmalar, cherkovlar hamda boshqa jamoat birlashmalarining nazarda tutilishi o’z mohiyatini topgan [2, 166].

Amerikalik siyosatshunos olim Mark Uorren fuqarolik jamiyati va ko’ngilli birlashmalar haqida to’xtalib fuqaro sifatida shakllanishiga, siyosiy munozaralarni uyg’otishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga va bozor faoliyatini rag’batlantirishga qodirligini alohida e’tirof etadi. M.Uorren o’zining “Demokratiya va uyushmalar” (Democracy and Association) nomli asarida “fuqarolik jamiyatini ijtimoiy uyushma sohasi sifatida belgilaydi va unda ko’ngilli uyushmalar o’rtasidagi munosabatlar ustunlik qilishini alohida keltirib o’tadi” [5, 56]. Olim turli xil uyushmalar guruhlarini muayyan jihatdan ko’rib chiqib, ularning: “fuqaro sifatida shakllanishiga, siyosiy munozaralarni uyg’otishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga va bozor faoliyatini rag’batlantirishga qodirligini hamda fuqarolik jamiyati ta’rifidan do’sklar yoki oila o’rtasidagi munosabatlarni chiqarib tashlashni ta’kidlab, bu munosabatlar fuqarolik emas, balki xususiy (shaxsiy) aloqalardir”-deydi.

Fuqarolik jamiyati to’g’risidagi zamonaviy qarashlarda uni nafaqat erkinlik yoki ixtiyoriy uyushmalar orqali talqin qilish keng tarqalgan, balki fuqarolik jamiyatining demokratiyaga qo’shayotgan hissasi Tokvil singari zamonaviy davr olimlarini ham diqqatini o’ziga tortgan.

Jumladan, AQShning Jorjtaun universiteti professori M.Xovard demokratiyalar jarayonida fuqarolik jamiyati tashkilotlarining o’rniga alohida to’xtalib: “fuqarolik jamiyati tashkilotlarida ko’proq odamlar ishtirok etar ekan, “ular ijtimoiy-siyosiy institutlarni kuchaytirishi va demokratik hukumat faoliyatiga hissa qo’shishi mumkin bo’lgan demokratiya normalari, qadriyatlar va ko’nikmalarini yanada muvaffaqiyatli o’zlashtiradi” [10, 61] – degan xulosani beradi.

Fikrimizcha, davlatni fuqarolarning uyushgan manfaatlariga zid keladigan qonunlar qabul qilishdan cheklashi mumkinligi borasida Mark Xovard atroflicha to’xtalib o’tadi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga institutsional yondashuv tarafdori bo’lgan Xovardning ta’kidlashicha, fuqarolik jamiyati institutlari va ularning tashabbuslari fuqarolar o’zini o’zi boshqarish tizimining rivojidagi doimiy o’zgarishlarni ta’minlaydi [10, 61].

Olimning qarashlarini shunday ifodalash mumkinki unga ko’ra, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda fuqarolarning faol ishtiroki umumijamiat miqyosidagi ijobiy o’zgarishlarga, samaradorlik va taraqqiyotga olib keladi. Ya’ni, fuqarolik jamiyati va uning institutlari kategoriyasi shaxs va jamiyat ongida

ijtimoiy qadriyatga aylangandagina, tom ma'nodagi kuchli fuqarolik jamiyati qurilishida asosiy omilga aylanadi.

Xulosa va takliflar qismi (Conclusion/ Recommendations). Maqolada ijtimoiy hamkorlikning nazariy asoslari tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy hamkorlik jamiyatning barqaror rivojlanishi va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida samarali munosabatlarni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ijtimoiy hamkorlikning shakllanish mexanizmlari, uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar yoritildi.

Shuningdek, ijtimoiy hamkorlikning samarali ishlashi jamiyatdagi o'zaro tushunish, hamjihatlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, turli sohalarda, xususan, pedagogika, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida qo'llanilishi mumkin. Umuman olganda, maqola ijtimoiy hamkorlik tushunchasini chuqurroq anglash, uning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashga yordam beradi hamda jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Benhabib S. Critique, Norm and Utopiya. New York: Columbia University Press, 1986. Cohen J., Arato A. Civil Society and Social Theory. Cambridge: MIT Press. 1992.
2. Fozilov U. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2016.
3. Habermas J. The structural transformation of the public sphere an inquiry into a category of bourgeois society. Cambridge, 1989.
4. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. –T.: "O'zbekiston", 2010.
5. Warren M. Democracy and Association/ Princeton UnivPress, 2001.
6. Герель Г.В. Философия Права. – Москва: Мысль. 1990. – 286 с.
7. Грамши А. Избранные произведения/Пер. с.итал. – М.: Политиздат. 1980. – 421 с.
8. Пейн Т. Права человека// Американские просветители. Избр. Произведения. – Москва:1969.
9. Туманова А.С. Концепции гражданского общества западных обществоведов XX века. – Москва: Наука, 1995.
10. Ховард М. Слабость гражданского общества в посткоммунистической Европе. – Москва: 2009.

Аннотация: Статья посвящена теоретическим основам социального сотрудничества. В работе рассматриваются понятие социального сотрудничества, его формирование и механизмы развития. Также анализируются факторы, способствующие эффективности сотрудничества, включая социальные институты, доверие и систему взаимных интересов. Результаты исследования могут быть использованы для улучшения социальных отношений в обществе и развития взаимодействия между различными социальными группами.

Ключевые слова: профсоюз, социальное общество, социальное партнерство, диалектика, государство, коллективный договор.

Annotation: This article examines the theoretical foundations of social cooperation. It explores the concept of social cooperation, its formation, and development mechanisms. The study also analyzes factors ensuring the effectiveness of cooperation, including social institutions, trust, and the system of mutual interests. The findings can be applied to improve social relations in society and to promote collaboration among different social groups.

Key words: trade union, social society, social partnership, dialectics, state, collective agreement.